


O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING YILLIK HISOBOTI

AGRICULTURE ANNUAL REPORT 2023



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO'JALIGI
VAZIRLIGI



ERISHILGAN
NATIJALAR,
TAHLILLAR
VA TENDENSIYALAR

2023-YIL



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO'JALIGI
VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING YILLIK HISOBOTI

ERISHILGAN
NATIJALAR, TAHLILLAR
VA TENDENSIYALAR

2023-yil

Hayot sinovlarida toblangan, mard va matonatli fermerlarimiz, barcha qishloq xo'jalik xodimlari bundan buyon ham xalqimiz farovonligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdek g'oyat mas'uliyatli vazifani ado etishda butun kuch-g'ayrat va imkoniyatlarini safarbar etadilar, deb ishonaman.

Shavkat Mirziyoyev



Loyiha rahbarlari:

Qishloq xo'jaligi vaziri o'rinbosarlari Bunyod Oxunov, Alisher Shukurov

To'plab, nashrga tayyorlovchilar:

Qishloq xo'jaligi vazirligi Statistik tahlil va prognozlashtirish bo'limi boshlig'i Javlonbek Xolov, J.Artikov

Statistik ma'lumotlar:

Statistika agentligi, Bojxona qo'mitasi, Markaziy bank

Dizayn ishlari:

Feruz Kurbonov

Qishloq xo'jaligi bo'yicha 2023-yil uchun yillik hisoboti O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Statistik tahlil va prognozlashtirish bo'limi tomonidan tayyorlandi.

Mazkur yillik hisobot O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan

STRATEGIYASida belgilangan sohada amalga oshirilgan choralar va erishilgan natijalar hamda davlat siyosatining istiqbolli choralarini o'zida qamrab olgan qishloq xo'jaligining yillik hisobotini (Agriculture annual report) chop etish vazifani ijrosini ta'minlash, shuningdek, foydalanuvchilarning sohada amalga oshirilgan islohotlar natijalaridan xabardor etishga mo'ljallangan.

MUNDARIJA

QISQARTMALAR

SO'ZBOSHI

1-BOB. O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA ISLOHOTLAR.

- 1.1. Qishloq xo'jaligida islohotlar
- 1.2. Agroklasterlar, kooperatsiyalar va agrologistika markazlari tashkil etish
- 1.3. Xorijiy mamlakatlar va nufuzli xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan loyihalar
- 1.4. Agrar va oziq-ovqat tarmog'ining respublika tashqi savdo aylanmasidagi o'rni va ta'siri
- 1.5. Oziq-ovqat yetishtirish hajmini oshirish
- 1.6. Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish
- 1.7. Qishloq xo'jaligida ilm-fan, ta'lim
- 1.8. Ma'muriy islohotlar natijalari

2-BOB. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI

2.1. QISHLOQ XO'JALIGI

- 2.1.1. Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish
- 2.1.2. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish
- 2.1.3. Qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish va ovchilik

2.2. O'rmon xo'jaligi

2.3. Baliqchilik xo'jaligi

QISQARTMALAR

AKIS Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazi
ALM Agrologistika markazlari
ASK Texnik yordam. Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtiriladigan Qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash va bilimlarini oshirish dasturi
BCI "Better Cotton Initiative" tashkiloti
CABI Xalqaro qishloq xo'jaligi va bio-tadqiqotlar markazi
FAO BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti
GFSI Oziq-ovqat xavfsizligi global indeksi
GHI Global ochlik indeksi
GLOBAL G.A.P. Xalqaro maqbul qishloq xo'jaligi amaliyoti
HACCP Xavfli tahlil va keskin nazorat nuqtalari. Oziq-ovqat sanoati sohasida xatarlar tahlili
IFAD Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi
IPM Zararkunandalarga qarshi integratsiyalashgan boshqaruv
ISO Xalqaro standartlashtirish tashkiloti
ITH Ilmiy texnik hujjatlar
JICA Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi
MFY Mahalla fuqarolar yig'ini
MHT-2008 Milliy hisoblar tizimi – 2008
NRI Tabiiy resurslar instituti
OPEK Neftni eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti
OTB Osiyo taraqqiyot banki
OTM Oliy ta'lim muassasasi
SIAT "Statistika" integrallashgan axborot tizimi
XMT Xalqaro mehnat tashkiloti
YaIM Yalpi ichki mahsulot

SO'Z BOSHI



SO'Z BOSHI

Yurtimizda qishloq xo'jaligining rivoji, uni diversifikatsiyalash bugungi kundagi oldimizda turgan dolzarb vazifalardandir. Zero, o'zaro mahsulot yetkazib berishda "yashil yo'laklar"ni yanada keng joriy etish qishloq xo'jaligidagi samarali hamkorlikka yordam beradi. Shuningdek, agrosanoat majmuasi bo'yicha kengash va MDHning boshqa tuzilmalarining qishloq xo'jaligi sohasidagi faoliyatini faollashtirish zarur bo'ladi. So'nggi yillar aynan qishloq xo'jaligida sinovli davrlarni boshdan kechirayotganiga qaramay, aholini asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlashga erishilib kelinmoqda.



Buyuk Alisher Navoiy bobomizning: "Odamiy ersang, demagil odami, Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami", degan hikmatli so'zlari dunyoda insonlarning dardu tashvishlarini o'ylab yashash – odamiylikning eng oliy mezonidir degan ma'nodagi fikrlari biz-qishloq xo'jaligi zaxmatkashlari uchun yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda dasturlamal bo'lib xizmat qilmoqda.

So'nggi vaqtda asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining narxi jadal o'sib borayotgani, dunyoning ba'zi mintaqalarida aholi keskin oziq-ovqat taqchilligini boshidan kechirayotgani kuzatilmoqda.

Bunday tahdidlarni bartaraf etish bo'yicha xorijiy hamkor mintaqalar o'rtasida hamkorlikda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'llarini izlash, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) shafeligida mamlakatlar qishloq xo'jaligi vazirlarini uchrashuvlarini tashkil etishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda ekin maydonlaridan samarali foydalanish, fermer, dehqon xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi tashkilotlari va tomorqa yer egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq joylarda aholining bandligini ta'minlash va farovonligini yuksaltirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu hisobotda 2023-yilda O'zbekistonning agrar va oziq-ovqat sektorida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar natijalari taqdim etilgan. Shu bilan birga, sohada amalga oshirilgan choralar, erishilgan natijalar hamda davlat siyosatining istiqbolli choralari o'zida qamrab olgan.

Mamlakatimizda agrar va oziq-ovqat tarmog'ini rivojlantirish yakunlarini sarhisob qilishga qaratilgan mazkur hisobotda 2023-yilda sohada amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, 2030-yilgacha qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish strategiyasi hamda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsad va ustuvor yo'nalishlarning maqsadli ko'rsatkichlariga erishish natijalari atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, hisobotda qishloq xo'jaligining holati va istiqbollarini qisqa va yaqqol tarzda tavsiflovchi muhim axborot-tahliliy ma'lumotlar Qishloq xo'jaligi vazirligi uchun keyingi qadamlarni belgilashda foydali bo'lishi nazarda tutiladi.

Fermerlar, dehqon xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari tez o'zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan bir paytda davomiy va jiddiy islohotlarni boshlash orqali qishloqdagi dehqon, fermer masalasini hal qilish, og'irini yengil qilish asosiy vazifamiz ekanligini davlat rahbari tomonidan ta'kidlab o'tgan.

Jumladan, agrar va oziq-ovqat sohasida investitsion muhitni yanada yaxshilash orqali investitsion jozibadorlikni oshirish, zaruriy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ekishni rag'batlantirish orqali oziq-ovqat xavfsizligi barqarorligini ta'minlash hamda import qilinadigan mahsulot hajmini bosqichma-bosqich qisqartirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sug'urtalashning ilg'or va samarali tizimini joriy etish, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish asosiy vazifalarimizdan hisoblanadi.

2024-yilda yangi institutsional islohot natijasida respublika qishloq xo'jaligi sohasida yagona davlat siyosatini yuritish va ijro organining yagona tizimi shakllantirilib, amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida keng jamoatchilikni xabardor qilib borishni maqsad qilganmiz.

Hisobotda hududlar kesimida sohaning asosiy tarmoqlari: Dehqonchilik, chorvachilik, o'rmon xo'jaligi, baliqchilik qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish va ovchilik sohalari holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga, shuningdek asosiy amalga oshirilgan islohotlarni umumiy tavsiflash ma'lumotlariga asosiy o'rin ajratilgan.




1-BOB. O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA ISLOHOTLAR

1.1. Qishloq xo'jaligida islohotlar

So'nggi yillarda sohani barqarorligini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan ko'plab chora-tadbirlar, tarkibiy islohotlar o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. O'tgan yil davomida, jiddiy muammolarga qaramay, bizning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tizimlarimiz mustahkam va barqaror bo'lib qolmoqda. Bu esa shakllangan sektor tajribasi hamda ta'minot zanjiri tuzilmalarining ishonchliligidan dalolat beradi. Pirovardida, iste'molchilarimiz uchun keng turdagi yuqori sifatli, arzon qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlaridan muntazam foydalanish imkoniyati yaratilmoqda.

Vazirlik qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organi hisoblanishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 9-iyuldagi 571-son qarorining 1-ILOVAsi bilan belgilab qo'yilgan. Ushbu vakolati doirasida vazirlik tomonidan 2019-2023-yillarda qishloq xo'jaligi sohasiga doir 331 ta normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Xususan, 2023-yilda agrar islohotlarni takomillashtirish bo'yicha 14 ta qonun loyihasi, 17 ta Prezident Farmoni loyihasi, 22 ta Prezident Qarori loyihasi, 91 ta Hukumat Qarori loyihalari ishlab chiqilib, ulardan 55 tasi, jumladan 4 ta Qonun, 8 ta Prezident Farmoni, 16 ta Prezident Qarori, 26 ta Hukumat qarori normativ hujjatlar qabul qilindi.



O'zbekiston Respublikasining qonunlari:

1. 2023-yil 21-avgustdagi “Veterinariya to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida O'RQ-864-sonli qonuni.

Ushbu Qonun bilan Samarqand veterinariya meditsinasi instituti — “Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti”ga o'zgartirildi. Bu bilan sohaga kadrlar tayyorlash ko'lami kengaytirish maqsad qilindi.

2. 2023-yil 23-oktyabrdagi “Yer to'g'risidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” O'RQ-871 — sonli qonuni. Mazkur Qonun ijara munosabatlari yanada kengayishiga, servitut belgilash bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishga, yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yer uchastkalari ijarachilari va mulkdorlarining huquqlari ishonchli himoya qilinishiga xizmat qiladi.

3. 2023-yil 9-noyabrdagi “O‘simliklarni himoya qilish to‘g‘risida” O‘RQ-877-sonli qonuni.

Ushbu Qonunning maqsadi o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo‘lib, o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi qonuniylik, inson sog‘lig‘i va atrof-muhit xavfsizligining ustuvorligi, tizimlilik va uzluksizlik, biologik usulni qo‘llash ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik kabi asosiy prinsiplar belgilab qo‘yildi.

4. 2023-yil 9-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga dehqon xo‘jaligini yuritish uchun ajratiladigan yer uchastkalarining o‘lchamini oshirishga qaratilgan o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida” O‘RQ-876-sonli qonuni.

Mazkur Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining Yer kodeksiga va “Dehqon



xo‘jaligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga mamlakatning ayrim hududlarida chorva ozuqasi ekinlarini yetishtirish maqsadida dehqon xo‘jaligini yuritish uchun ajratiladigan yer uchastkalarining eng ko‘p o‘lchamini 1 gektardan 5 gektarga oshirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari:

1. 2023-yil 10-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-dekabrdagi “tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlar eksport qilinishini rag‘batlantirish va raqobatdoshligini ta‘minlash yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5286-son farmoniga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida” PF-1-sonli farmoni.

Respublikada parrandachilikni yanada rivojlantirish, bedana go‘шти yetishtirishni sanoatlashtirish hamda mahalliy tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini kengaytirishni qo‘llab-quvvatlash ko‘zda tutildi.

2. 2023-yil 10-yanvardagi “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-2-sonli farmoni.

Mazkur Farmon bilan keyingi besh yilda paxta tolasini chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2,1 baravarga va eksport ko‘rsatkichini 2,6 baravarga oshirishni ta‘minlash hamda gilam va uy to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida:

-Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi tomonidan gazlama, trikotaj mato va tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari eksport qiluvchi korxonalarni uzluksiz, jumladan revolver kreditlash asosida aylanma mablag‘ bilan ta‘minlash uchun Eksportni rag‘batlantirish agentligi huzuridagi Eksportni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga, uning buyurtmasiga asosan 2023-yilda 100 million AQSH dollari va 2024-yilda 150 million AQSH dollari miqdoridagi mablag‘lar 2024-yil avgustdan boshlab 2026-yil 1-yanvarga qadar qaytarish sharti bilan yillik 4 foiz stavkada ajratilishi;

- Tijorat banklarida, ularning buyurtmasiga asosan 50 million AQSH dollari miqdorida, 10 yil muddatga, 3 yillik imtiyozli davr bilan yillik 4 foiz stavkada va qolgan davr uchun yillik 5 foiz stavkada quyidagi mezonlar bo'yicha gazlama, gilamchilik, bo'yash-pardozlash, tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish loyihalariga kredit liniyalari ochilishi;

- Andijon, Namangan va Qashqadaryo viloyatlarida to'qimachilikka ixtisoslashgan kichik sanoat zonalarini hamda Toshkent viloyatida to'qimachilik va charam sanoati mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga ixtisoslashgan industrial texnopark hududlari;

- 2026-yil 1-oktyabrga qadarto'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda bojxona bojidan ozod qilinadigan ayrim tovarlar ro'yxati belgilab berildi.

3. 2023-yil 16-fevraldagi "Yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-24-sonli farmoni.

Farmonda Ispaniya va Portugaliyaning yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlikda xalqaro moliya institutlarining 7,8 mln AQSH dollari miqdoridagi grant mablag'lari hisobidan 2023-yilda Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida yillik quvvati 10 ming tonna bo'lgan mayda shoxli mollar uchun vitamin va minerallar bilan boyitilgan omuxta yem ishlab chiqaruvchi korxonalar va Samarqand viloyatida Qorako'lichilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti bazasida Chorva hayvonlari genetik tadqiqoti laboratoriyasini tashkil qilish;

Yaylov xo'jaligini rivojlantirish uyushmasiga a'zo qorako'lichilik-naslchilik xo'jaliklarida 500 ming bosh mayda shoxli mollarni raqamli identifikatsiya qilish va bunda, ushbu omuxta yem ishlab chiqarish korxonalari tomonidan yomg'irlatib

sug'orish texnologiyasini joriy etgan holda don yetishtirish uchun Qo'mitaga qarashli 800 gektar yaylov o'zlashtirish;

Xalqaro moliya institutlarining jalb etilgan mablag'lari hisobidan Qo'mitaga qarashli 500 gektar yaylovda quyosh energiyasida ishlaydigan nasos agregatlari yordamida yerosti suvlarini chiqarish hamda tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etish bo'yicha namunaviy pilot loyihani amalga oshirish uchun jumladan Fransiya taraqqiyot agentligining (chorvachilikni rivojlantirish uchun ajratilgan) grant mablag'larini ajratish choralari ko'rish belgilandi.

4. 2023-yil 1-iyundagi "Pillachilik sohasida kasanachilikni qo'llab-quvvatlash hamda pilla yetishtirish uchun ozuqa bazasini yanada kengaytirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-85-sonli farmoni.

Farmonda hududlarda ipak qurtini parvarishlash, yetishtirilgan pilla xom ashyosini xarid qilish, qayta ishlash, qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, tayyor mahsulotni ichki bozorga yo'naltirish va eksport qilish bilan shug'ullanadigan yangi pillachilik klasterlari tashkil etish;

tut ko'chatlarini yetishtirish, tutzorlarni barpo qilish, ipak qurtini parvarishlash, pilla xom ashyosini tayyorlash bilan shug'ullanadigan pillachilik va tutchilik yo'nalishidagi yangi fermer xo'jaliklari tashkil etish belgilandi.

5. 2023-yil 10-iyundagi "Ma'muriy islohotlar doirasida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-90-sonli farmoni.

Farmonda Qishloq xo'jaligi vazirligi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari;

Qishloq xo'jaligi vazirligining tashkiliy tuzilmasi;

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining tashkiliy tuzilmasi;

Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasining tashkiliy tuzilmasi;

O'simliklar karantini va himoyasi agentligining tashkiliy tuzilmasi;

Qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish agentligining tashkiliy tuzilmasi;

Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining tashkiliy tuzilmasi;

Qishloq xo'jaligi sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo'yicha "yo'l xaritasi";

Qishloq xo'jaligi vazirligi va uning tizimidagi xodimlarni moddiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha choralar belgilab berildi.

6. 2023-yil 19-iyundagi "Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlarini moliyalashtirishning uzluksizligini ta'minlash to'g'risida" PF-98-sonli farmoni.

Farmonda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan Iqtisodiyot va moliya vazirligiga Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi uchun 250 million AQSH dollari 12 oy muddatga foizsiz ajratilishi belgilab qo'yildi.

7. 2023-yil 19-iyundagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalariga nisbatan xususiy mulkchilik instituti joriy etilishi va mulk huquqining daxlsizligiga oid qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida" PF-99-

sonli farmoni.

Farmonda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini mulk va ijara huquqi asosida elektron onlayn-auksion orqali berish (realizatsiya qilish);

yer uchastkalarini to'g'ridan-to'g'ri ajratishni nazarda tutuvchi tartiblar, imtiyoz va istisnolarni qonunchilikdan to'liq chiqarib tashlash;

qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish va ijaraga berishdan tushadigan mablag'larni taqsimlashning yagona tartibini belgilash;

jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo'yicha respublika va hududiy maqsadli jamg'armalar faoliyatini tartibga soluvchi qonunosti hujjatlarini takomillashtirish;

yer to'g'risidagi qonunosti hujjatlaridagi o'zaro nomuvofiqliklarni bartaraf etish belgilandi.

8. 2023-yil 12-dekabrda "Qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-205-sonli farmoni.

Farmonda qishloq xo'jaligida erkin bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish, paxta-to'qimachilik klasterlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni bozor tamoyillari asosida takomillashtirish, tarmoqda sog'lom raqobat muhitini shakllantirish maqsadida 2024-yil hosildan boshlab paxta xom ashyosini yetishtiruvchi xo'jaliklar va klasterlar o'rtasida paxta xom ashyosini yetkazib berish bo'yicha fyuchers shartnomalari tuproq hosildorligi normativlari doirasida O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasining "paxta xom ashyosi seksiyasi"da har bir hudud bo'yicha alohida o'tkaziladigan savdolar natijalariga ko'ra

Президент қарорлари
• Озиқ-овқат технологияси ва муҳандислиги халқаро институтини ташкил қилиш чора-тадбирлари тўғрисида • Paxta хом ашёси етиштирувчилар фаолиятини янада қўллаб-қувватлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида • Қишлоқ хўжалигида аҳоли бандлигини ошириш ва ер участкаларидан самарали фойдаланиш чора-тадбирлари тўғрисида • Илмийлик тармоқини янада ривожлантириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида • Япония халқаро ҳамкорлик агентлиги (Jica) иштирокида «Мева-сабзавотчилик тармоғида қўшган қиймат завоқори яратишни ривожлантириш (2-босқич)» лойиҳасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида • Аграр секторида замонавий қишлоқ хўжалиги техникалари билан таъминлашни рағбатлантиришнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида • 2023 йилда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш, қайта ишлашни кенгайтириш ва қўллаб-қувватлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида • Қишлоқ хўжалиги қорқоналари дала четларидан ер майдонларида маҳсулот етиштириш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида • Халқаро тарафдан уюшмаси ҳамда Халқаро тикланиш ва тараққиёт банки иштирокида «Чорвачилик соҳасини ривожлантириш (2-босқич)» лойиҳасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида • Аграр соҳада илм-фан, таълим ва ишлаб чиқаришни интеграция қилиш оқилли сифат ва самарадорлигини оширишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида • Қишлоқ хўжалиги соҳасига илгор рақамли технологияларни жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида • 2023-2026 йилларда узуқичлик ва виночилик соҳасини янада ривожлантиришга қаратилган чора-тадбирлар тўғрисида • Балчиқчилик хўжалиги эҳтиёжлари учун сув хазиналаридан фойдаланиш тартибини такомиллаштириш ҳамда балчиқ оқлаш ва сув бўйи турмуш шароитларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида • Чорвачиликда идентификация қилиш тизими ва наснчилик соҳасини такомиллаштиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида • Paxtachиликда урунчилик тизимини ривожлантириш ҳамда пaxта ҳосилдорлигини оширишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида • Наснчилик хўжалиқларини давлат томонидан қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида

Вазирлар Маҳкамаси қарорлари
• Ерлар деградациясига қарши курашни тадбирларини мониторинг қилиш, баҳолаш ва ҳисобот шакллари ишлаб чиқиш ҳамда ularнинг натижаларини чоп этиш тартиби тўғрисидаги низоми тасдиқлаш ҳақида • 2023-2026 йилларда Ўзбекистон Республикасида урунчилик ва қўчат етиштиришни ривожлантириш миллий дастурини тасдиқлаш тўғрисида • Давлат ветеринария назорати соҳасидаги руқсат этиш ҳужжатига эга айрим ҳужжатларни бериш тартиби тўғрисидаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш ҳақида • Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкалари инарасига доир ҳуқуқий муносабатлар такомиллаштирилиши муносабати билан вазирлар маҳкамасининг «қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларини инарага бериш тартибига доир норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида» 2023 йил 24 ноябрдаги 709-сон қарорига ўзгариш ва қўшимчалар киритиш ҳақида • Қишлоқ хўжалиги, мелiorация ва йўл-қурилиш техникаларидан фойдаланиш соҳасида давлат хизматлари кўрсатиш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида • Сирдарё вилоятида қишлоқ хўжалиги инфратузилмасини ривожлантириш жамғармаси тўғрисидаги низоми тасдиқлаш ҳақида • Бунгилан ерларни рекултивация қилиш, тупроқнинг ўнумдор қатламни сўқлаш ва ундан оқилona фойдаланишни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида • Қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ва ўрмон фонди ерларининг ер фонди тоифаларини ўзгариши мақсадларини қўриб чиқиш бўйича Ҳукумат комиссияси тўғрисидаги низоми тасдиқлаш ҳақида • 2023 йил ҳосилидан бугдой харид қилиш ва ички бозорда нарсалар барқарорлигини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида • Асфальтчилик тармоқини қўллаб-қувватлаш ва қишлоқ хўжалиги экинларини асалари билан чанглатишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида • Пиллани қайта ишлаш ва пилла қурти уруғини ишлаб чиқарувчи қорқоналар томонидан пилла буюқчиларга етакчи берилган илм қурти уруғи учун субсидия ажратиш тартиби тўғрисидаги низоми тасдиқлаш ҳақида • Қишлоқ хўжалиги соҳасига илгор рақамли технологияларни жорий қилишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида • Аграр ва озиқ-овқат соҳалари учун субсидия ажратиш тизимини такомиллаштириш ва унинг самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида • Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштирувчиларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш ҳамда субсидия бериш механизмларини такомиллаштиришга қаратилган ўзгариш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида • Paxta хом ашёсини етиштирувчилар учун қўшган қиймат солиғини тўлаш ҳамда ҳисобга олиш мuddатларини мувофиқлаштириш тўғрисида • Наснчилик хўжалиги мақомини бериш бўйича давлат хизматлари кўрсатишнинг маълумий регламентини тасдиқлаш тўғрисида

- Yaylov yerlardan foydalanish sohasidagi qonunchilik hujjatlari takomillashtirilganligi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 5-iyuldagi 504-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi hududida chegara rejimi to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish haqida
- Issiqxona xo'jaliklari va meva-sabzavotlarni eksport qiluvchi korxonalarning faoliyatini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida
- Yer resurslarining holati bo'yicha milliy hisobotni yuritish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida
- Qishloq xo'jaligi ekinlari navlari va daryoqlarini davlat nav sinovidan otkazilish hamda sohaga elektron identifikatsiyalash tizimi joriy etilishi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini sinash tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2021-yil 27-martdagi 158-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida
- Qoraqalpog'iston Respublikasi so'vitchiligi sig'imlar uyushmasiga a'zo subyektlarga kooperatsiya tashkil etgan holda, so'vitchiligi sig'imlarni qirish va jihozlash hamda qish va bahor oylarida elektr energiyasi iste'moli xarajatlarning bir qismini qoplash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida
- Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi davlat boshqaruvi takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida
- Paxta xom ashyosini yetishtirish va paxta yig'im-terimi xarajatlarni kreditlash hamda ularni realizatsiya qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida
- Chorvachilikda identifikatsiya qilish tizimi va nasnchilik sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida
- Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida
- Fitosanitariya talablari yangillashirilishi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi hududini o'simliklar karantinidagi zararli organizmlardan himoya qilish va o'simliklar karantini sohada ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida" 2018-yil 29-yanvardagi 65-son qaroriga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida
- Hayvonlarni identifikatsiya qilish, no'yaxga olish va kuzatish tizimining tartib-taomillari takomillashtirilganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida

tuzilishi belgilandi.

Bulardan tashqari o'tgan yilda qabul qilingan Prezident qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining sohaga oid qarorlari ro'yxatini e'tiboringizga havola qilamiz:

Amalga oshirilayotgan ishlar tahlili

Qishloq xo'jaligi deganda, bog'u-ro'g'lar, bepoyon g'alla va paxta dalalari, chorva

hayvonlari, to'kin-sochin dasturxonimiz, umuman butun hayotimiz ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda mazkur soha tubdan isloh qilish bo'yicha tizimli tadbirlarni amalga oshirildi va bugungi kunda ilgari kuzatilmagan yuqori natijalar qo'lga kiritilmoqda.

Bugungi kuchli raqobat hamda iqlim o'zgarishlari sharoitida qishloq xo'jaligiga

innovatsiya va ilg'or ishlanmalarni, intensiv va resurs tejovchi texnologiyalarni, eng asosiysi ilm izchil tatbiq qilinmoqda.

Keyingi paytda butun dunyoda bo'lgani kabi yurtimizda ham tabiat inijliklari tez-tez kuzatilayotgani, suv resurslarining cheklangani ilm-fan va ishlab chiqarish uyg'unligini yanada kuchaytirdi.

O'z navbatida, omilkor dehqonlarimiz zamonaviy bilimlarni o'rganish barobarida, ko'p yillik boy tajribani qo'llash orqali mahoratini oshirib, alohida azmu shijoat ko'rsatishmoqda.

Bunday jonkuyar insonlarni, o'z ishinig haqiqiy ustalarini doimo ardoqlaymiz, ularning mehnatini hamisha qadrlaymiz.

Yil boshidagi anomal sovuq, bahordagi jala va yog'ingarchiliklar, yoz chillasining o'ta issiq kelishi va suvning har yilgidan sezilarli darajada kamligi soha mehnatkashlarini yana bir bor sinovdan o'tkazdi.

Shunga qaramasdan, soha rivojiga qaratilgan alohida e'tibor, yaratib berilayotgan munosib mehnat sharoiti tufayli qishloq xo'jaligining barcha tarmoqlarida barakali hosil yetishtirilib, o'tgan yillarga nisbatan yuqori natijalarga erishildi.

Joriy yilda agrar sohada tizimli islohotlarni amalga oshirishga katta e'tibor qaratilib, ma'muriy islohotlar amalga oshirildi.

Soha boshqaruvidagi tarqoq funksiyalar, vazifalar va vakolatlar yagona tizimga integratsiya qilindi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni xususan, chorvachilik va issiqxona xo'jaliklarini, paxta-to'qimachilik klasterlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, hamda uzumchilik va vinochilik sohasini barqaror rivojlantirish, xom ashyo bazasi kengaytirish va eksport hajmini oshirish, agrar sektorni zamonaviy, resurs tejamkor texnikalar bilan ta'minlashni rag'batlantirish bo'yicha yangi mexanizmlar joriy etildi.

Shuningdek, mahsulot yetishtiruvchilarda ixtiyoriylik asosida ekinlarni mustaqil joylashtirish, davlat

idoralari aralashuvini bekor qilish, fermerlarga erkinlik berish bo'yicha qarorlar qabul qilindi.

Ilm va innovatsiyalarga asoslangan zamonaviy agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish hamda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishni moliyalashtirish tizimini tubdan isloh qilinishi o'z samarasini berdi.

Biz shu kungacha mamlakatimiz geografik joylashuvi dengizga chiqishga imkoniyat bermasligini muammo sifatida qaragan bo'lsak, qishloq xo'jaligi nuqtayi nazaridan esa bu katta imkoniyatdir.

Dunyoda sodir bo'layotgan global iqlim o'zgarishlari, tabiiy ofatlar ta'siri, avvalambor, dengizga yaqin joylashgan mamlakatlarda suv toshiqini, tuproq unumdor qatlamning yuvilishiga, sho'rlanish darajasi ortib, degradatsiya jarayonlarini keskinlashuviga va tarkibini buzilishiga olib kelmoqda.

Mamlakatimiz Osiyo materigi markazida ekanligi, bu kabi muammolarni qishloq xo'jaligiga ta'sirini kamaytiradi. Biroq, suv tanqisligi, qurg'oqchilik, cho'llanish va sho'rlanish holatlari bizlarni ham chetlab o'tmagan.

Bunday sharoitda tuproq unumdorligini oshirish, yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tardik va qishloq xo'jaligi ekotizimini barqarorligini saqlashga qaratilgan sa'y-harakatlarimizni to'g'ri ekanini isbotlamoqda.

Biz har bir qarich yerdan hamda har bir tomchi suvdan unumli foydalanadigan, doimo izlanib, o'ziga xos tajriba yaratgan insonlarni haqiqiy vatanparvar sifatida qadrlaymiz.

Joriy yilda ham mana shundan klasterlar va fermerlar tomonidan 100 ming gektar yerlar foydalanishga kiritilib, oziq-ovqat ekinlari ekildi, mevali bog' va tokzorlar barpo etilmoqda.


Iqlim o'zgarishi, global isish oqibatida

mamlakatimizda suv tanqisligini oldini olish uchun 500 ming gektarda suv tejavchi texnologiyalar joriy qilinib, 3 mlrd kub metr suv iqtisod qilindi va qariyb 1 mln gektardan yerlarning suv

ta'minoti yaxshilandi.


Sohada zamonaviy ilm va innovatsiyalarga asoslangan resurs tejankor texnologiya va agrotexnik

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi Faktlar va tendensiyalar 2023-yil





O'zbekistonda qishloq joylarda yashovchilarning ulushi (foizda)



Manba: Statistika agentligi

tadbirlarni joriy etish, gumusli bio o'g'itlarni qo'llash hisobiga tuproq sifati yaxshilanib, hosildorlik paxtada 10 foiz, bug'doyda 20 foiz, sabzavot-poliz ekinlarida 25-30 foizgacha oshdi.

Respublikamiz aholisi 36,8 mlndan oshdi. Sarhisob qilinayotgan ushbu yilda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va aholi daromadlarini oshirish va narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

So'nggi ikki yilda qishloq aholisi

bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va oziq-ovqat mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish maqsadida 200 ming gektar paxta va g'alla maydonlari qisqartirilib, 670 mingta fuqarolarga berildi.

Natijada qariyb 2,2 mln nafar mavsumiy va doimiy ish o'rinlari yaratilib, qo'shimcha 3 mln tonna mahsulotlar yetishtirildi.

Umuman olganda, 2023-yilda sohada 3 mln nafarga yaqin qishloq aholisining bandligi va daromad manbasi ta'minlandi.

Meva-sabzavotchilikda ilm-fan yutuqlari

va resurs tejamkor texnologiyalarni qo'llab, hosildorlik va daromad tobora oshib bormoqda.

Sabzavotchilikda intensiv usulda mahsulot yetishtirish amaliyoti keng qo'llanilib, joriy yilda 30 ming gektar maydonning har bir gektardan 80-100 tonnadan hosil va 6-8 ming dollar sof daromad olindi.

Xususan, Jizzax viloyati Zomin tumanida "Jilg'ali soy shabadası" fermer xo'jaligi, "Dashtobod zilolasi" fermer xo'jaligida piyozdan har bir gektardan 100-120 tonnadan, Angor tumanida "Tanovar Surxon" Agrofirma, Jarqo'rg'ondagi "Bek Ali Adxambek" fermer xo'jaliklari karamdan 70-80 tonna, Kasbi tumanida "Do'stmurod Eshonqulov", Koson tumanida "Sanjar Najim o'g'li" fermer xo'jaliklari sabzidan 70-80 tonnadan hosil olishga erishdi.

Eksportbop meva va uzum yetishtirish hajmlarini oshirish maqsadida intensiv usulda 34 ming gektar mevali bog' va 86 ming gektar uzumzorlar barpo etilmoqda.

Natijada 15 mln tonnadan ortiq sabzavot-poliz, 5 mln tonna meva-uzum, 4 mln tonna kartoshka yetishtirildi.

Bularning barchasi ichki bozor ehtiyojini qondirish barobarida, qishloq joylarida zamonaviy savdo, logistika markazlari, chuqur qayta ishlash, saqlash korxonalarining rivojlanishiga va eksport imkoniyatlarini kengayishiga zamin bo'ldi.

2023-yilda meva-sabzavotlarni qayta ishlash quvvatlari 3,3 mln tonnaga, agrologistika markazlari soni 76 taga va quvvati qariyb 1 mln tonnaga yetkazildi.

Meva-sabzavotlar eksporti geografiası kengaydi, Angliya va Kolumbiya bozoriga eksport koridorlari ochilib, dukkakli va quritilgan mahsulotlar eksporti yo'lga qo'yildi.

Pirovardida, bugungi kunga qadar respublikadan qiymati 1,5 mlrd dollardan ortiq mahsulotlar 75 ta davlatga eksport qilindi.

G'allakorlarimiz tomondan olimlar va

tajribali dehqonlarning tavsiyalari asosida agrotexnologiyalarni qo'llash orqali mustaqil O'zbekiston tarixida ilk marotaba 8,5 mln tonna don yetishtirildi.

Ishni tizimli va to'g'ri tashkil etish orqali har bir gektardan Buxoroda o'rtacha 75 sentner, Toshkent, Samarqand, Farg'onada 74 sentner, Andijonda 73,5 sentner, Xorazm va Namanganda 73 sentner hosil olindi.

Gap yuqori daromad haqida ketar ekan, g'allaning har gektaridan 80-85 sentnerdan hosil olib, Do'stlik, Paxtakor, Mirzacho'l, Zafarobod, Uchqo'rg'on, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Narpay, Paxtachi, Angor, Qumqo'rg'on, Oltinsoy, Sayxunobod, Piskent, Yuqorichirchiq, O'rtachirchiq, Beshariq, Buvayda, Dang'ara, Quva, Qo'shtepa, Urganch va Hazorasp tumanlari barchaga o'rnak bo'lib, jonbozlik ko'rsatdi.

Gektaridan 95-100 sentnerdan hosil ko'targan, Mirzacho'l tumanidagi "Og'abek Sobirovich", Uchqo'rg'ondagi "Farxod zamin tolasi", "Toshpo'lot xoji ota", Kattaqo'rg'ondagi "Rashidov SHR", Paxtachidagi "Nodirjon Navruzjon Ortikov", "Norbo'ta Meyliyevich dalasi", Buxorodagi "Madaniyat Muxammad Ismat", Romitandagi "To'ra Jo'ra Umar", "Safarobod-2000" Angordagi "Ikki do'st Surxon Angor", Jarqo'rg'ondagi "Otaqum Umidli Baraka", "Mirkamol Dostonovich", "Toshmurod bobo Abdullox", Qumqo'rg'ondagi "Xurshid Jo'rayev", Boyovutdagi "Bekzod Obloqulov", "Mexnatkashga omad yor", "Sayoxat zavqi", Bekobodagi "Boqiyeva Nazira agro", Yuqorichirchiqdagi "Ibroxim agro fayz", Boyovutdagi "Sayoxat zavqi", "Bekzod Obloqulov" Buvaydadagi "Alqor agrotex", "Buyuk Zafar", Quvadagi "Komiljon Dilafruz Ismigul" kabi fermer xo'jaliklari nomlarini mamnuniyat bilan e'tirof etsak bo'ladi.

Bularning barchasi xalqimiz uchun non narxini barqarorligini ta'minlashga zamin bo'lmoqda.

Bunday ulkan natijalar ortida dehqonlarimizning mashaqqatli va uzoqni

ko'zlab qilgan mehnati yotibti desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Paxtachilikda global iqlim o'zgarishini inobatga olib, ilm-fan tavsiyalari va innovatsiyalar asosida qurg'oqchilik va suvsizlikka chidamli, yangi serhosil, ertapishar navlar maydoni kengaytirilib, suv va resurs tejovchi texnologiyalar keng qo'llanildi.

Paxtachilik kengashi tomonidan nav joylashtirishda olimlarning tavsiyalari asosida tumanlarning tuproq-iqlim sharoiti va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, 22 ta yangi istiqbolli navlar joylashtirildi va 38 ming gektarga tindirilgan urug' ekildi, 45 ming gektarda urug'lar yangilandi.

Sohada yaratilgan katta imkoniyat va tizimli ishlar natijasida hosildorlik o'tgan yilga nisbatan 3,5 sentnerga oshdi va 37,5 sentnerni tashkil qil, 3 mln 713 ming tonnalik paxta xirmoni yaratildi.

Bu ulkan natijaga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shgan Kattaqo'rg'on'dagi "Kattaqo'rg'on Cluster", Buxoroda "Buxoro agroklaster", Paxtakorda "Semrug", To'raqo'g'onda "Namangan To'qimachi Cluster", Bog'otda "Kobotex" kabi paxta-to'qimachilik klasterlari, Angor tumanidagi "Qoraqir tomchilari", Jarqo'rg'onda "Jarqo'g'on", Oltinsoyda "Feruz", Romitanda "Kozimbobo", Qorako'lda "Samad Beshim", Do'stlikda "Eshniyoz bobo", Paxtakorda "Sher Ulug' Jahon", To'raqo'rg'onda "Baxtiyor Ne'mat Shavkat", Boyovutda "Shayzoq ota", Yuqorichirchiqda "Tangirberdi ota", Yozyovonda "Mezon", "Zulfiqor", Quvada "Solijonobod 2020", Yangibozorda "Xorazm Faxri" Urganch tumanida "Rajab ota Jumanov" fermer xo'jaliklari barchaga namuna bo'ldilar.

Paxtachilikda bozor mexanizmlariga asoslangan klaster tizimini joriy etilgani ijobiy natijasini ko'rsatmoqda. Qishloq xo'jaligi va sanoatni uyg'unlashtirgan ushbu innovatsion xo'jalik yuritish tizimi tezda o'zini oqladi va klasterlar asosiy kuchga, sohaning drayveriga aylandi.

Paxta-to'qimachilik klasterlarida yangi zamonaviy texnika va texnologiyalarni qo'llash, agrar sohani sanoatlashtirish, xom ashyoni chuqur qayta ishlab, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish orqali, mahsulotlar eksport qilinmoqda.

Xususan, paxta-to'qimachilik klasterlarida so'nggi 5 yilda qishloq xo'jaligi va "xom ashyodan tayyor mahsulotgacha" bo'lgan qiymat zanjirini yaratishga 6,3 mlrd dollar investitsiya o'zlashtirildi.

Natijada, tolani qayta ishlash 2,5 baravar, ip-kalava ishlab chiqarish 2 baravar, tayyor mahsulot 3 baravar ortib, to'qimachilik mahsulotlari eksporti 3,5 mlrd dollarga yetdi.

Bugungi kunda agroklasterlar qishloq xo'jaligining barcha yo'nalishlarida jumladan, to'qimachilik, kasanachilik, meva-sabzavotchilik, chorvachilik, pillachilik, resurs tejamkor texnologiyalarni ishlab chiqarish va joriy etish kabi yo'nalishlarda jonbozlik ko'rsatmoqda.

Ayni paytda yurtimizda 660 dan ortiq agroklasterlar faoliyat yuritib, paxta va g'allaning 100 foizi, meva-sabzavot mahsulotining 60 foizidan ortig'i aynan klaster usulida yetishtirilmoqda.

Sohani zamonaviy yuqori unumli qishloq xo'jaligi texnikalarisiz rivojlanishni tasavvur qilib bo'lmaydi. Bejiz xalqimizda-"texnika dehqonning qanoti" deyishmaydi.

Shundan kelib chiqib, sohada texnika ta'minotini yaxshilash hamda ta'minlanish darajasini oshirish maqsadida, 2023-yilning o'zida 2,5 trln so'mlik 10,5 ming dan ortiq yuqori unumli texnika va agregatlar qishloq xo'jaligi subyektlariga yetkazib berildi.

Pirovardida chigit ekish mavsumi 20 kundan 8 kunga, g'alla o'rim mavsumi 30 kundan 16 kunga qisqarib, shudgorlash ishlarini 20-25 kunda yakunlash imkoniyati yaratildi.

Tizimli ishlar natijasida Yangi O'zbekiston davrida ilk martoba yetishtirilgan hosilning 25 foizi mashinalarda terib olindi.

Chorvachilik, pillachilik sohalarida ham

yuqori natijalarga erishilib, aholining chorva mollarini bepul identifikatsiya qilish, suv havzalarini baliqchilik tadbirkorlarga shaffof mexanizm asosida ijaraga berish tizimlari joriy etildi.

Chetdan 70 ming bosh nasldor qoramol, 180 ming bosh qo'y-echki va 2 mln bosh jo'ja keltirildi.

Tizimli tadbirlar natijasida respublikada zoti yaxshilangan qoramollar ulushi 74 foizga, hududlarda yirik chorvachilik komplekslari soni 540 taga (2019-yilda 50 ta) yetkazildi.

Pillachilikda klasterlar 74 ta yetdi, 124 mln tup tut ko'chatlari ekildi, qariyb 26 ming tonna pilla yetishtirildi.

Yana bir muhim masala, bu sohani jadal raqamlashtirishdir. Shuning uchun bu yo'nalishga alohida hamda katta e'tibor qaratildi.

O'tgan ikki yilda yangi 10 ta axborot va geoaxborot tizimlari joriy etilib, sohada ma'lumotlarning aniqligini oshirish, ma'lumot yig'ish jarayonlarida inson omilini qisqartirishga erishildi.

Natijada mahsulot yetishtiruvchilarga mahsulot yetishtirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kengaytirish, yerlarni ochiq elektron tanlov orqali ijaraga berish, moliyalashtirish va kreditlash bo'yicha raqamlashgan xizmatlar yo'lga qo'yildi.

Xabaringiz bor, qishloq xo'jaligi tizimini tubdan isloh qilish va uning rivojini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha keng ko'lamli ishlarni boshlab, yangicha yondashuv va boshqaruvni joriy etdik.

Shu bilan bir qatorda, global iqlim o'zgarishi, suv resurslarining tobora tanqislashuvi, cho'llashuv darajasining oshishi dehqonlarimiz va soha olimlari oldiga ko'plab muammolar yechimini topish masalasini qo'ymoqda.

Bu xavflarning oldini olish, tuproq unumdorligini oshirish, sohani resurs tejaydigan va yuqori unumli yangi texnikalar bilan uzluksiz ta'minlab borish, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida

agrotexnologiyalarni joriy etish, haqiqiy bozor mexanizmlarini joriy qilish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash hamda yetuk bilimga ega mutaxassislar tayyorlash oldimizdagi ustuvor vazifalardan bo'lib qolmoqda.

Shuning uchun ham dunyoda sodir bo'layotgan geosiyosiy holatlar hamda tez o'zgarib borayotgan global iqlim o'zgarishlarini teran anglab, mamlakatimiz qiyosiy ustunligi va imkoniyatlarini hisobga olib, ish tutishni davrning o'zi taqozo qilmoqda.

Ushbu ustuvor vazifani ta'minlashning birdan-bir yo'li bu sohaga ilm-fan va innovatsiyalarni keng joriy etishdir.

Shundan kelib chiqib, sohani barqaror rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, iqlim o'zgarishiga moslashgan qishloq xo'jaligi yuritish uchun 2024-2026-yillarda amalga oshiriladigan tizimli ishlarni belgilab olingan:

- agrar sohadagi "ilm-fan-ishlab chiqarish" uzviy integratsiyasini yo'lga qo'yish va agroxizmatlar ko'rsatish tizimi yangi bosqichga olib chiqish uchun Qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasi tashkil etiladi;

- jahon tajribalaridan kelib chiqib, agrar soha vakillari, jumladan, agroklasterlar, fermerlar va agrartadbirkorlik subyektalarida ilm-fan va innovatsiya yutuqlari qo'llash bo'yicha haqiqiy integratsiya muhiti yaratiladi;

- Toshkent davlat agrar universiteti va Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti faoliyati yo'nalishlari integratsiya qilinib, bugungi kun talabi va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari real talabidan kelib chiqib, yangi ta'lim yo'nalishlari tashkil etiladi, innovatsion texnologiyalar asosida zamonaviy bilim va o'nikmalarni ega va amaliyotga qo'llay oladigan kadrlarni tayyorlash yo'lga qo'yiladi;

- global iqlim o'zgarishiga moslashish, qurg'oqchil, suv tanqis mintaqalarda



yerlar degradatsiyasini oldini olish maqsadida Italiyaning Vallerani tizimi olib kelinadi va sinov tariqasida 1 mln gektar degradatsiyalangan yaylovlarni qayta tiklash loyihasi amalga oshiriladi;

- Resurs tejovchi innovatsion texnologiyalarni qo'llash hisobiga mahsulot yetishtirish tannarxini 30-35 foizga qisqartirish va suv tejovchi texnologiyalar joriy etilgan maydonlar 1,5 mln gektarga

yetkaziladi;

- Xalqaro moliya tashkilotlari mablag'lari hisobidan urug'chilik tizimi tubdan modernizatsiya qilinib, iqlim o'zgarishlariga mos, ekinlar urug'chilik tizimi yo'lga qo'yiladi va

sifatli, raqobatbardosh urug'lik mahsulotlari ishlab chiqarish kengaytiriladi;

- sohadagi barcha axborot tizimlari "Raqamli qishloq xo'jaligi" platformasida integratsiya qilinadi va mahsulot yetishtiruvchilarga "bir darcha" tamoyilida kompleks xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yiladi.

Agroklasterlar faoliyati

Agrar-tadbirkorlik sohasida joriy yilda 55 ta agrosanoat klasterlari faoliyati tashkil etilib, jami klasterlar soni 669 taga yetkazildi.

Bugungi kunda paxta-to'qimachilik klasterlari 153 ta, g'allachilik klasterlari 126 ta, meva-sabzavotchilik klasterlari 136 ta, sholichilik 41 ta, dorivorchilik 8 ta, chorvachilik 34 ta, qorako'lchilik 46 ta, parrandachilik 11 ta, baliqchilik 38 ta va pillachilik 76 tani tashkil etmoqda.

Klasterlar tomonidan sohaga 510 mln. dollar investitsiya jalb qilinib, paxtani qayta ishlash 65 foizga (2022-yilga nisbatan 832 ming tn yoki 123 foizga oshgan), g'allani qayta ishlash 38 foizga (105 tn yoki 102 foizga), meva-sabzavotni qayta ishlash

92 foizga (110 ming tn yoki 111 foizga) yetkazilgan.

Shuningdek, suv tejovchi texnologiyalar – 34,7 ming ga o'rnatilib, jami 161,6 ming ga, yer maydonlarini lazerli — 45 ming ga tekislanib, jami 237 ming ga yetkazilgan.

Qishloq xo'jaligi texnikalari – 1,1 mingdan ortiq xarid qilinib, texnika bilan ta'minlanish darajasi 92 foizni tashkil etgan.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish hisobiga joriy yil hosili uchun 3,7 mln.tn paxta xomashyosi yetishtirilib, o'rtacha hosildorlik 36,6 s/ga (2022-yilga nisbatan +2,7s/ga) erishilgan.

Joriy yilning o'zida 34 719 nafar (2022-yilga nisbatan 8 119 taga ko'p) yangi ish o'rinlari yaratilib, soxada jami 224 796 nafar ishchilarning bandligi ta'minlangan.

Joriy yil hosili uchun boshqoqli don yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirishga klaster va fermer xo'jaliklariga Jamg'armadan 5 trln 52 mlrd so'm (2022-yilga nisbatan 1,1 trln so'mga ko'p) imtiyozli kredit mablag'lari ajratib berildi. Ushbu mablag'lar ajratilishi natijasida 7,1 mln tonna (2022-yilga nisbatan 0,8 s/ga ko'p) boshqoqli don yetishtirildi.

Ushbu kredit mablag'larining 4 trln 766 mlrd so'm (94%) so'ndirildi.

Paxta xomashyosi yetishtirish

xarajatlarini moliyalashtirish uchun paxta-to'qimachilik klasterlariga Jamg'armadan 9,8 trln so'm (2022-yilga nisbatan 1,2 trln so'mga ko'p) imtiyozli kredit mablag'lari ajratib berildi. Natijada 3,7 mln tonna (2022-yilga nisbatan 3,5 s'ga ko'p) paxta xomashyosi yetishtirildi.

Shu bilan birga, terim xarajatlarini moliyalashtirishga Jamg'armadan 3,6 trln so'm imtiyozli kreditlar ajratilib, klasterlar tomonidan 4,6 trln so'm terimchilarga terim pullari to'lab berildi.

Meva-sabzavotchilik sohasida mahsulot yetishtirish va xarid qilish xarajatlarini moliyalashtirishga klasterlar va boshqa mahsulot yetishtiruvchilarga 322 mlrd so'm mablag'lar ajratilib, mahsulot yetishtiruvchi va eksportyor korxonalar tomonidan 285 mlrd so'm (89%) o'zlashtirildi.

Shundan, 202 mlrd so'm mahsulot yetishtirish uchun va 120 mlrd so'm mahsulot xarid qilish uchun yo'naltirildi.

Buxoro viloyatidagi "BCT Cluster



Agrokompleks" hamda Toshkent viloyatidagi "TST Agro Cluster" paxta-to'qimachilik klasterlariga "Better Cotton Initiative" xalqaro tashkiloti tomonidan maxsus litsenziya berildi. Bu klasterlarda yetishtirilgan paxta xom ashyosi ekologik jihatdan toza ekanligi xalqaro darajada tan olinganini tasdiqlaydi. "Better Cotton" dunyoning 26 ta mamlakatida faoliyat yuritayotgan bo'lib, 330 dan ortiq brend va 3000 ta chakana sotuvchilar uning a'zosi hisoblanadi. Ular "Yaxshilangan paxta" dasturi doirasida yetishtirilgan paxtani xarid qilish majburiyatini olgani klaster va fermerlar uchun qulay imkoniyatdir. BCI litsenziyasini olish oson emas. Buning uchun klasterlarda xom ashyo yetishtirishdan tortib, uni chuqur qayta ishlashning barcha bosqichlarida ekologik

va ijtimoiy mas'uliyat to'liq bajarilishi shart. Klasterlar 2020-yildan buyon mazkur dasturning faol ishtirokchilari sifatida ushbu tamoyillarni to'liq bajarib kelmoqda.

Klasterlar tomonidan sohaga ilg'or ilmfan yutuqlari, innovatsion texnologiyalar va zamonaviy agroteknik tadbirlarning joriy qilinishi natijasida o'rtacha hosildorlik 2016-yildagi 26,2 sentnerdan 2023-yilda 36,0 sentnerga yoki 37 foizga oshdi. Joriy yilda Yangi O'zbekiston tarixida ilk marotaba 3,7 million tonna paxta xomashyosi yetishtirildi.

Kooperatsiyalar

Mamlakatimizda kooperatsiya munosabatlarining shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirda yurtimizda paxta va g'allachilik yo'nalishida 38

ta kooperativlar tashkil etilgan. Ushbu kooperativlarning a'zolari soni 327 ta, ularga birlashtirilgan maydon 23,7 ming gektarni tashkil etadi.

2023-yilda ushbu kooperativlar tomonidan 92,8 ming tonna paxtaxomashyosi yetishtirilib, o'rtacha hosildorlik 38 sentnerga yetdi.

Agrologistika markazlari


Joriy yilda qiymati 666 mlrd.so'm, quvvati 298 ming tonna bo'lgan 12 ta zamonaviy agrologistika markazi foydalanishga topshirildi. Natijada agrologistika markazlari soni 66 tadan 78 taga, quvvatlar 899 ming tonnadan 1 197 ming tonnaga yetkazilib,



Manba: Qishloq xo'jaligi vazirligi

1.3. Xorijiy mamlakalar va nufuzli xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan loyihalar

326 nafar yangi ishchi o'rinlari yaratildi. Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molchilarga tez ravishda yetkazib berish, qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymatni yaratish, sohada xususiy sektor ulushini oshirish orqali oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlash yo'nalishida Hukumatimiz tomonidan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Oziq-ovqat mahsulotlarini bir joyning o'zida yetishtirish, yig'ish, saqlash, qayta ishlash, tashish va sotish imkonini beruvchi Agrologistika markaz(ALM)larini barpo etish shular jumlasidan. 2023-yilda Respublika bo'yicha faoliyat yuritayotgan ALM soni 78 taga yetkazildi.




O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 16-oktyabr kuni Xitoy Xalq Respublikasiga tashrifi chog'ida ikki davlat rahbarlari oziq-ovqat mahsulotlari, tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish, biotexnologik klasterini yaratish va boshqa ko'plab sohalarda kooperatsiyani chuqurlashtirish va kengaytirishdan o'zaro manfaatdor ekanini qayd etdilar. Tashrif davomida shu yo'nalishlarda bir qator muhim iqtisodiy bitimlar, jumladan O'zbekiston-Xitoy agrosanoat parkini tashkil etish to'g'risida; O'zbekiston-Xitoy biotexnologik klasterini tashkil etish to'g'risida bitimlar imzolandi. Bundan tashqari, O'zbekiston Parrandachilik uyushmasi va Xitoy chorvachilik uyushmasi o'rtasida parrandachilik sohasida, O'zbekiston Respublikasi "Ozcharmsanoat" uyushmasi va Xitoy charm sanoati assotsatsiyasi o'rtasidagi hamkorlik bo'yicha tarmoq memorandumlari imzolandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev 30-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iz Respublikasi o'rtasidagi davlat chegarasining alohida uchastkalari to'g'risidagi shartnoma hamda Andijon (Kampirobod) suv omborining suv resurslarini birgalikda boshqarish to'g'risidagi bitimni ratifikatsiya qilishga oid qonunlarni imzoladi. O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iz Respublikasi o'rtasidagi davlat chegarasining alohida uchastkalari to'g'risidagi shartnoma 13 ta moddadan iborat. Unda o'zbek-qirg'iz Davlat chegarasining 35 ta uchastkadagi umumiy uzunligi 302,29 km bo'lgan chizig'i belgilandi.

O'zbekistonga 4957 gektardagi Andijon suv ombori hududi hamda to'g'onga xizmat ko'rsatish va uni muhofaza qilish uchun qo'shimcha 19,5 gektar yer maydoni o'tkaziladi, Qirg'izistonga esa kompensatsiya tarzida 1019 gektar yaylov yerlari berilishi belgilandi.

Shuningdek, Qirg'izistonga Andijon suv omborining qurilmay qolgan Kampirobod chap qirg'oq kanali uchun "G'ovasoy" uchastkasidan 12 849 gektar yer maydoni kompensatsiya tarzida beriladi. Bunda, Qirg'iziston tomoni "G'ovasoy" daryosining tabiiy oqimiga to'sqinlik qiladigan gidrotexnik va boshqa inshootlarni qurmaslik, suvning texnik ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oldi.



Andijon suv omborining suv resurslarini birgalikda boshqarish masalalasi va So'x tumanidagi "Chashma" bulog'i joylashgan uchastka alohida shartnomalar bilan tartibga solinishi kelishib olindi. Andijon suv ombori suv resurslarini birgalikda boshqarishning huquqiy asoslari yaratiladi. 2,5 million tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va 500 million dollar miqdoridagi mahsulotlarni eksport qilish uchun 8 mingga yaqin fermer xo'jaliklarini suv bilan uzluksiz ta'minlash imkoniyati paydo bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 16-18-yanvar kunlari Singapur Respublikasiga tashrif buyurdi. Tashrif davomida Prezidentimiz Singapurning yetakchi kompaniya va tashkilotlari rahbarlari bilan uchrashuv o'tkazdi. Tadbirda Singapur mehnat vaziri – savdo va sanoat ikkinchi vaziri Leng Si Tang, Singapur biznes federatsiyasi raisi Ming Yan Lim, ushbu mamlakatning Indorama, Meinhardt group, CPG Corporation, Changi Airports, Singapur menedjmentni rivojlantirish instituti, TMC Academy, Virtus Health kabi 15 ta yirik kompaniyalari rahbarlari ishtirok etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev uchrashuv ishtirokchilarini qutlab, uning yangi 2023-yildagi ilk tashrifi aynan Singapurga bo'layotgani O'zbekistonning ushbu mamlakat bilan mustahkam va o'zaro manfaatli munosabatlarni yo'lga qo'yishga alohida e'tibordan dalolat ekaniga e'tibor qaratdi. O'zbekiston-Singapur biznes forumining natijalari mamnuniyat bilan qayd



etildi: uning doirasida umumiy qiymati qariyb 5 milliard dollarlik yangi investitsiya, savdo va moliyaviy kelishuvlar imzolandi. Singapur kompaniyalarining ilg'or tajribasi bizda katta qiziqish uyg'otmoqda, - dedi davlatimiz rahbari. – Ishonchim komilki, singapurlik hamkorlarning innovatsiya va texnologiyalari O'zbekistonning resurslari va kadrlar salohiyatiga qo'shilsa, bo'lajak qo'shma loyihalar barqaror rivojlanadi. O'zbekiston Singapur tadbirkorlarini zarur ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan ta'minlash, imtiyozlar va kafolatli xaridlar shaklida keng qo'llab-quvvatlash, boshqa ko'mak choralarini taqdim etishga tayyor ekani bildirildi.



Yurtimizdagi islohotlar xorijiy hamkorlar orasida O'zbekistonning ishonchli va barqaror sherik sifatidagi mavqeini mustahkamlashga qaratilganini ta'kidlab, Prezident Shavkat Mirziyoyev singapurlik ishbilarmonlarni o'zaro manfaatli hamkorlik uchun ochilayotgan imkoniyatlardan foydalanish va iqtisodiyotimizga faol investitsiya kiritishga chaqirdi.

1.4. Agrar va oziq-ovqat tarmog'ining respublika tashqi savdo aylanmasidagi o'rni va ta'siri

Respublikaning tashqi savdo aylanmasi 2023-yilda 62,6 mlrd dollar, shundan eksport 24,4 mlrd dollarni tashkil etgan bo'lsa, bu aylanmada qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining eksporti qariyb 2 mlrd dollarni yoki umumiy hajmga nisbatan 8,2 foizni tashkil etdi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi Faktlar va tendensiyalar 2023-yil





**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR**
(2023- yil yanvar-dekabr, mln. AQSH dollari)

XXR TSA – 13 722,0 Eksport: 2 461,8 Import: 11 260,1  21,9 %	Rossiya TSA – 9 883,8 Eksport: 3 307,6 Import: 6 576,1  15,8 %	Qozog'iston TSA – 4 398,9 Eksport: 1 372,5 Import: 3 026,4  7,0 %	Turkiya TSA – 3 099,7 Eksport: 1 248,5 Import: 1 851,2  5,0 %	Koreya Respublikasi TSA – 2 343,2 Eksport: 40,4 Import: 2 302,9  3,7 %
Turkmaniston TSA – 1 094,4 Eksport: 171,2 Import: 923,2  1,7 %	Germaniya TSA – 1 054,2 Eksport: 75,8 Import: 978,4  1,7 %	Fransiya TSA – 984,7 Eksport: 392,1 Import: 592,6  1,6 %	Qirg'iz Respublikasi TSA – 953,4 Eksport: 631,5 Import: 321,9  1,5 %	Afg'oniston TSA – 867,0 Eksport: 856,7 Import: 10,3  1,4 %

Meva-sabzavot eksporti (TIF TN kod 07*08*) 2023-yilda 1,5 foizga, 1785,4 ming tonnadan 1761,1 ming tonnaga kamaydi.

Bunga o'tgan yilning yanvar oyida respublikamiz hududiga kirib kelgan anomal sovuq natijasida meva, uzum, issiqxonalarda yetishtiriladigan mahsulotlarga katta zarar yetdi. Natijada, uzum eksporti o'tgan 2022-yilga nisbatan 55,9 foizga, karam eksporti 19 foizga, shaftoli 1,3 foizga, pomidor 23,8 foizga va quritilgan uzum 18,3 foizga kamayishi kuzatildi. Aksincha mosh eksporti 28,4 foizga, qovun-tarvuz 7,7 foizga, quritilgan olxo'ri 45,3 foizga, piyoz 45,5 foizga, gilos 58,9 foizga, o'rik 6,9-martaga ko'paydi.

Qayta ishlangan qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti sezilarli darajada o'sdi. Masalan, go'sht mahsulotlari — 196%, alkogolsiz ichimliklar – 289%, tirik

dengiz mahsulotlari 129% yuqori sur'atlarda o'sdi.

Asosiy oziq-ovqat turlari jumladan, bug'doy kabi ba'zi tovarlarning asosiy eksportchilari bo'lgan bir nechta mamlakatlar qiyosiy ustunlikka ega. Shuning uchun importchi mamlakatlar ushbu asosiy eksportchilarga juda yuqori darajada qaram bo'ladi. Umuman olganda, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining global savdosi yanada muvozanatli va tashqi omillarga chidamli bo'lib qolgan bo'lsa-da, individual tovarlar, ayniqsa asosiy oziq-ovqat mahsulotlari darajasida qaramlik jiddiyligicha qolmoqda. Juda ko'p sonli turli xil mamlakatlar oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kam sonli eksportchi davlatlardan sotib oladi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI


(2023- yil yanvar-dekabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

Uzum 86,5 mln. AQSH dollari 126,1 ming tonna 55,9 % ↓	Karam 30,5 mln. AQSH dollari 97,2 ming tonna 19,0 % ↓	Shaftoli shu jumladan nektarin 67,2 mln. AQSH dollari 87,2 ming tonna 1,3 % ↓	Pomidor 44,0 mln. AQSH dollari 57,5 ming tonna 23,8 % ↓
Uzum quritilgan 68,6 mln. AQSH dollari 57,3 ming tonna 18,3 % ↓	Mosh 120,1 mln. AQSH dollari 154,6 ming tonna 28,4 % ↑	Qovun va tarvuz 40,0 mln. AQSH dollari 148,1 ming tonna 7,7 % ↑	Olxo'ri quritilgan 45,1 mln. AQSH dollari 36,0 ming tonna 45,3 % ↑
Tariq 38,0 mln. AQSH dollari 17,0 ming tonna 4,6 m. ↑	Piyoz 61,2 mln. AQSH dollari 299,6 ming tonna 45,5 % ↑	Gilos 52,9 mln. AQSH dollari 45,0 ming tonna 58,9 % ↑	O'rik 40,7 mln. AQSH dollari 63,0 ming tonna 6,9 m. ↑

Ko'pgina mamlakatlar o'z savdo sheriklaridan import nomenklaturasi cheklangan miqdordagi kamroq tovarlarni sotib oladi. Bu mamlakatlar uchun faqat bir nechta eksportchilardan sotib olinadigan kichik assortimentdagi tovarlarning importiga qaramlik eksport qiluvchi mamlakatlardagi ta'minot inqirozlariga chidamlilik nuqtayi nazaridan xavf manbai bo'lishi mumkin. Kichik miqdordagi savdo hamkorlariga qaramlik ham import qiluvchi, ham eksport qiluvchi mamlakatlarda

nomutanosiblik va zarbalarga zaiflikka olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, mamlakatlar faqat bir nechta yirik eksportchilardan iborat bo'lgan don savdo tarmog'idagi uzilishlarga eng kam chidamli. Oxirgi 2 yillik savdo aylanmasida O'zbekiston ham bundan mustasno bo'la olmadi va import hajmi eksportga nisbatan sezilarli darajada oshdi. Xususan, eksport hajmi 105,7 foizga o'sgan bo'lsa, import hajmi esa 121 foizga ortgan.

Dunyodagi eng yirik bug'doy eksport qiluvchi mamlakatlar



Manba: Jahon eksport ma'lumotlari

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha 2023-yilda dehqon bozorlari va do'konlardagi ayrim tovarlarning o'rtacha narxlar

1 kg. so'mda

Mahsulot nomi	Yanvar	Fevral	Mart	Aprel	May	Iyun	Iyul	Avqust	Sentabr	Oktabr	Novabr	Dekabr	Yillik o'rtacha narxlar
Guruch	14855	16218	17342	18116	18890	19501	19794	20152	20436	20381	20293	20280	18855
Arpa	4269	4403	4428	4435	4364	4283	4165	4077	4080	4095	3992	3905	4208
Bug'doy	4254	4272	4285	4241	4175	4121	3844	3689	3649	3699	3657	3637	3960
Jo'kori	4201	4250	4300	4347	4330	4421	4335	4161	4011	3917	3813	3753	4153
Kepak	3110	3143	3147	3176	3282	3246	3229	3219	3190	3154	3120	3120	3180
Shrot	4325	4374	4403	4452	4507	4552	4556	4550	4546	4541	4508	4459	4481
Shulxa	3832	3863	3879	3894	3885	3886	3896	3919	3970	3978	3967	3917	3907
Kombikorm	3725	3782	3754	3738	3722	3815	3811	3824	3824	3820	3809	3813	3786
Oliy navli bug'doy uni	9429	9487	9473	9327	9124	9009	8899	8699	8886	9284	9318	9320	9188
1-navli bug'doy uni	7234	7144	7043	6799	6539	6431	6305	6174	6463	6813	6800	6813	6713
1-nav bug'doy unidan non	5712	5719	5754	5775	5804	5797	5787	5776	5917	6057	6058	6059	5851
Mol go'shti	71679	72446	72871	73420	74466	75421	75513	76314	77266	77495	77921	77957	75231
Go'y go'shti	74781	75698	76411	77141	78275	79344	79681	80241	80841	80886	81273	81509	78840
Tovuq go'shti	29239	29908	30457	30616	30557	30633	30638	30873	31580	31554	31566	31878	30792
Turli baliqlar	33093	33887	34312	36061	37996	38855	39402	38942	36938	35568	35399	35686	36345
Yangi soq'ilgan sut (1 litr)	7327	7698	7876	8185	8302	8389	8472	8536	8640	8713	8829	8910	8323
Tuxum (10 dona)	14309	14238	13674	13296	12948	12143	11460	12056	14383	15055	15566	15649	13731
Paxta yog'i (1 litr)	18513	18476	18290	17733	17149	16752	16430	16267	16164	16023	15824	15487	16926
Kungaboqar yog'i (1 litr)	21021	20978	20743	19886	18991	18430	17933	17777	17733	17586	17410	17201	18807
Sariyog'	63282	64234	65436	66321	66450	66990	67198	67794	68156	68489	68690	68940	66832
Limon	12666	13904	14942	15998	20687	26377	29911	32934	36557	35678	31575	27591	24902
Olma	10333	10917	11222	11524	12866	12337	11670	11470	11271	11423	12279	13341	11721
Nok	22460	23943	25720	28156	30164	29483	26470	25043	24111	23943	24724	25829	25837
Uzum	15677	18451	20864	25411	25201	20322	16981	16001	17515	21051	27012	31014	21292
Tarvuz	3841	5963	7536	25225	11758	2470	2409	2180	2375	2774	3943	6154	6386
Qovun	4724	5998	9422	7568	11531	5302	4734	3938	3793	4087	4932	7074	6092
Mayiz	41134	42691	43272	43457	43279	43336	43163	42829	42895	43105	44037	45190	43199
Karam	3245	3860	3820	4399	4579	3245	3379	5160	5677	4343	3449	3100	4021
Bodring	25398	25868	23051	13639	5138	3251	4749	6926	6267	7588	16853	26536	13772
Pomidor	18572	20090	25937	32207	15260	6233	4749	4252	4433	6749	14504	24278	14772
Baqilajon	21653	30037	33366	33303	17342	8109	5365	4373	4528	4761	6271	12916	15169
Bulg'or qalampir	25325	36883	44600	48218	21199	8719	6466	5759	5830	6145	8548	15334	19419
Qovoq	3472	4031	4454	5869	7425	6185	5426	4927	4326	3947	3718	3642	4785
Sabzi	3376	3703	3535	3832	4063	3959	4241	4772	5124	4312	3293	2928	3928
Sarimsoq	19354	20353	20972	21562	20192	17550	17408	17452	18577	20228	23745	27458	20404
Piyoz	5944	7701	6910	6219	4879	3613	3555	3333	3222	3154	2988	2892	4522
Kartoshka	4879	5156	5009	4873	4824	4018	3847	3982	4259	4291	4193	4175	4459
Loviya	14210	14624	15614	16616	17017	17246	17456	17751	17903	18014	18155	18314	16910
No'xot	20319	20874	21474	21951	22058	21978	21941	21942	21944	21933	21949	22086	21704
Mosh	13852	13971	14095	14088	14026	13990	13936	13990	14093	14064	14025	14007	14011
Shakar	12856	12931	13420	14361	14823	14560	14012	13962	13922	13908	14111	14181	13921

Yurtimizda olib borilgan izchil tadbirlar natijasida iste'mol bozorida tovarlar narxlari o'zgarishi keskin o'zgarishiga olib kelmadi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va bozorlarda narx barqarorligini saqlash maqsadida mahsulot hajmini ko'paytirish bo'yicha ham bir qator ishlar olib borilmoqda.

Import


Umumiy oziq-ovqat mahsulotlari va ularning xom-ashyolari importi 3711,7 mln dollarni yoki 103,4 foizni tashkil etdi. Shundan tayyor turdagi oziq-ovqat mahsulotlari importi 2595 mln dollarni tashkil etdi.


Jumladan, donli ekinlar va unlar tayyorlangan mahsulotlari 1031,5 mln doll. (107,8%), shakar, xom-ashyosi va undan tayyorlangan mahsulotlar 511,1 mln doll (96,5%), kofe, choy mahsulotlari 344 mln doll (124%), go'sht va go'sht mahsulotlari 308 mln doll (108,5%), sabzavot va mevalar 301,9 mln doll (122,6%), xayvon

uchun ozuqalar 204,2 mln doll (104,9 bar.) sut mahsulotlari 192,7 mln doll (134,4%), har hil oziq-ovqat 148,2 mln doll (50,3%) va ichimliklar 171,8 mln doll (135,7%), o'simlik yog'lar 381,5 mln doll (113,6%) mahsulotlar import bo'lgan.

Oziq-ovqat mahsulotlari importida ulushi yuqori bo'lgan mahsulotlar salqin ichimliklar (72 mln dollar), mayonez (23 mln dollar), go'sht va go'sht mahsulotlari (330 mln dollar), bug'doy (832 mln doll), o'simlik yog'i va mahsulotlari (382 mln dollar), bolalar taomi (77 mln doll), qandolat (252 mln doll), bug'doy uni (145 mln doll), sut mahsulotlari (80 mln doll) tashkil etmoqda.

Umuman olganda, narxlar barqarorligini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining keskin oshib ketishi oldi olindi.





Rossiya Federatsiyasi va Ukraina oziq-ovqat va o'g'it importiga qattiq qaram bo'lgan ko'plab mamlakatlar uchun asosiy yetkazib beruvchi hisoblanadi. Ulardan ba'zilari kam rivojlangan mamlakatlar guruhiga, ko'pchiligi kam daromadli va oziq-ovqat taqchilligi bo'lgan mamlakatlar sirasiga kiradi.

2023-yilning yanvar dekabrda yig'ma INI o'rtacha oylik o'sish sur'ati 0,7 % ga yetdi. Bu, bir yil avvalgi ko'rsatkichdan 0,2 foiz bandga va 2021-yildagi ko'rsatkichdan 0,1 foiz bandga past bo'ldi.

2023-yilda oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha INI 109,7 % darajasida, nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha 107,7 %, pullik xizmatlar bo'yicha 108,7 % darajasida qayd etilib, o'rtacha oylik o'sish sur'atimos ravishda 0,8%, 0,6% va 0,7 %ni tashkil etdi. Oziq-ovqat mahsulotlari narx o'zgarishlarining kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlarni 2023-yil dekabrda qisqa muddatli yig'ma INI o'sish sur'atiga umumiy ta'siridagi hissasi 45,2 % ga, nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlar hissasi 27,4%ga to'g'ri keldi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga uchta yirik guruhlarining 2022-yil dekabrda nisbatan yig'ma INI o'sish sur'atiga jami ta'sirining 46,8%i to'g'ri keldi (bir yil avval ushbu ko'rsatkich 53,9%ni tashkil etgan). Xizmatlar narxlarining ta'siri uchta asosiy guruhlar orasida eng past bo'ldi va uning ulushi 22,9%ni (o'tgan yili 15,7%) tashkil etdi. Shunday qilib, oziq ovqat mahsulotlarining narx o'zgarishlari hisobiga 2023-yil uchun yig'ma INI 4,10 f.d. o'sgan bo'lsa, nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlardagi narx o'zgarishlari hisobiga jami 4,67 f.d. o'sdi.

2023-yilning dekabrda "Donli ekinlar va yorma mahsulotlari" (109,7 % ga 131,3%), "Yog'larva moylar" (90,3 % ga 110,9%), "Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar" (98,6 % ga 112,9 %) va "Shakar, qandolat mahsulotlari vadesertlar" (109,0% ga 124,6 %) guruhlaridayillik nisbatdagi INI 2022-yilning dekabrda mos ko'rsatkichdan sezilarli darajada past bo'ldi. Mevalar va yong'oqlar esa, aksincha 2023-yilda bir yil avvalgiga qaraganda sezilarli qimmatlashdi. 1.5. Oziq-ovqat yetishtirish hajmini oshirish


ALOHIDA TURDAGI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI INI, % da



Guruch va guruch oqshog'i

2023- yilning yanvar-dekabrida

▲ **138,7 %**



Bug'doy uni

2023- yilning yanvar-dekabrida


▼ **98,9 %**



Mol go'shti (suyakli)

2023- yilning yanvar-dekabrida

▲ **109,3 %**



Qo'y go'shti

2023- yilning yanvar-dekabrida

▲ **109,3 %**



Xom, yangi sog'ilgan sut

2023- yilning yanvar-dekabrida

▲ **113,3 %**



Tuxum

2023- yilning yanvar-dekabrida

▲ **111,7 %**



Kungaboqar yog'i

2023- yilning yanvar-dekabrida

▼ **82,2 %**




Shakar

2023- yilning yanvar-dekabrida

▲ **111,0 %**



O'zbekiston Respublikasida 2019-2023 yillarda inflyatsiya darajasi (foizda)



Manba: Markaziy bank

Iste'mol narxlari indeksi (INI) dinamikasi*

foizda

Davr	o'tgan yilning mos davriga nisbatan			
	INI	shundan:		
		oziq-ovqat mahsulotlari	nooziq-ovqat mahsulotlar	xizmatlar
2023-yil				
Yanvar	12,2	15,4	10,9	8,4
Fevral	12,2	15,5	10,7	8,5
Mart	11,7	14,6	10,2	8,4
Aprel	11,0	13,7	9,3	8,6
May	10,4	13,0	8,4	8,6
Iyun	9,0	10,5	7,9	8,0
Iyul	8,9	10,7	7,3	8,2
Avgust	9,0	10,6	7,3	8,5
Sentyabr	9,2	11,0	7,6	8,2
Oktyabr	9,0	10,9	7,7	7,5
Noyabr	8,8	10,1	7,5	8,3
Dekabr	8,8	9,7	7,7	8,7


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar narxlari indeksi dinamikasi

o'tgan chorakka nisbatan % da

Nomi	2022-yil II-chorak	2022-yil III-chorak	2022-yil IV-chorak	2023-yil I-chorak	2023-yil II-chorak	2023-yil III-chorak	2023-yil IV-chorak
QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI	102,1	102,0	104,4	102,8	100,9	98,7	104,3


Qishloq xo'jaligi, ovchilik mahsulotlari va shu sohalardagi xizmatlar	102,1	102,0	104,5	102,9	100,9	98,5	104,3
O'rmon xo'jaligi, yog'och tayyorlash mahsulotlari va shu sohalardagi xizmatlar	101,7	100,7	100,3	100,5	101,3	102,6	105,6
Baliq va boshqa baliq ovlash mahsulotlari; baliqchilik mahsulotlari; baliq ovlash va baliqchilik bilan bog'liq xizmatlar	103,6	99,9	104,4	103,3	101,8	102,6	101,4

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi(mlrd. so'm)



Manba: Statistika agentligi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi



Manba: Statistika agentligi


1.5. Oziq-ovqat yetishtirish hajmini oshirish

2023-yilda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni yanada ko'paytirish, qayta ishlash hajmlarini oshirish, bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilanib, ijrosi yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirildi. 2023-yilda 86,3 trillion so'mlik oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini mahsulot ishlab chiqarildi va belgilangan reja 105,9 foizga bajarildi. Respublikada ro'yxatdan o'tgan oziq-ovqat korxonalari soni 28,7 ming ta, shundan 16,5 ming tasi faoliyat yuritmoqda, 9,5 ming tasi faoliyati to'xtagan, 2 714 ta yangi tashkil etilgan, 1 074 tasi tugatilgan.



Faoliyat yuritayotgan 16,5 ming ta korxonalardan 1,2 ming tasi meva-sabzavotni 1,3 ming tasi sutni, 668 tasi go'shtni qayta ishlash va 13,4 ming tasi boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar toifasiga to'g'ri keladi. Amalga oshirilgan tizimli ishlar natijasida, 2023-yilda 8,4 million tonna don ekinlari, 11,6 million tonna sabzavot, 3,6 million tonna kartoshka, 2,6 million tonna poliz, 3,1 million tonna meva, 1,7 million tonna uzum yetishtirildi. Aholini asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xususan, go'sht, sut, tuxum, baliq va asal mahsulotlari bilan ta'minlashni ko'paytirish maqsadida 2,8 million tonna go'sht (tirik vaznda), 12 million tonna sut, 0,2 million tonna baliq, 8,5 milliard dona tuxum yetishtirildi.

2023-yilda yetishtirilgan asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari
(million. tonna)



Manba: Statistika agentligi

Meva-sabzavotni qayta ishlash quvvatlari 3 065 ming tn dan 3 250 ming tn (+185 ming tn), go'shtni qayta ishlash quvvatlari 427 ming tn dan 458 ming tn (+31 ming tn), sutni qayta ishlash quvvatlari 2 760 ming tn dan 3 100 ming tn (+340 ming tn) yetkazildi.


Reyting	Mamlakat	Yakuniy baho	Maqbullik	Mavjudlik	Sifat va xavfsizlik	Barqarorlik va moslashish
1	Finlyandiya	83,7	91,9	70,5	88,4	82,6
2	Irlandiya	81,7	92,6	70,5	86,1	75,1
3	Norvegiya	80,5	87,2	60,4	86,8	87,4

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi *Faktlar va tendensiyalar 2023-yil*

4	Fransiya	80,2	91,3	69,0	87,7	70,3
5	Niderlandiya	80,1	92,7	70,7	84,7	69,2
...						
73	O'zbekiston	57,5	52,7	56,4	64,6	57,9

Manba: Oziq-ovqat xavfsizligi global indeksi, 2023-yil

IQTISODIY FAOLİYAT TURLARI BO'YICHA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSİYALAR (trln. so'm)



Paxta xomashyosini yetishtiruvchilar tomonidan tomchilatib sug'orish tizimini joriy etish bo'yicha xarajatlarning bir qismini qoplash uchun 160 mlrd so'm va qishloq xo'jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish uchun subsidiyalar 16,7 mlrd so'm 2023-yil uchun respublika byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilariga ajratilgan.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari zamon talablariga moslab borilayotganligi sababli 2023-yilda suvni tejaydigan texnologiyalar 500 ming gektar maydonda joriy etildi va ularning umumiy ko'rsatkichi sug'oriladigan maydonlarning 15,6 foizini tashkil qildi.





1.6. Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-martdagi PQ-103-son qaroriga asosan Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan "Agrobank" ATBga 515 mlrd so'm mablag'lar joylashtirilib, ushbu mablag'lar hisobidan klaster va fermer xo'jaliklariga 487 ta qishloq xo'jaligi texniklari xaridi uchun to'liq yo'naltirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-noyabrdagi PQ-413-son qaroriga asosan issiqxona xo'jaliklari moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirish va rivojlantirish bo'yicha respublika ishchi guruhining 3 ta yig'lish bayonlari qabul qilindi. Bunda 3 563 ta issiqxona va muzlatkichli omborxona xo'jaliklarining 11,4 trln so'mlik kreditlarni 14 yilga uzaytirish belgilangan bo'lib, bugungi kunda 3 088 ta issiqxona va muzlatkichli omborxona xo'jaliklarining 9,4 trln so'm

(87%) kredit mablag'lari uzaytirib berildi. Qishloq xo'jaligi mahsulot yetishtiruvchilarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash maqsadida 569,1 mlrd so'm subsidiya mablag'lari ajratib berildi. Jumladan, suv tejavchi texnologiyalar uchun 89,5 mlrd so'm, chorvachilik yo'nalishiga 403,7 mlrd so'm, ipakchilik va jun sanoatiga 75,9 mlrd so'm. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 19-iyundagi "Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash xarajatlarini moliyalashtirishning uzluksizligini ta'minlash to'g'risida"gi PF-98-sonli Farmoniga asosan 2022-yil paxta yetishtirish uchun Jamg'armadan ajratilgan resurslarning 2,9 trln so'mni qaytarish muddati 12 oyga uzaytirilib, klasterlarning moliyaviy xolatidan kelib chiqqan holda qaytarish grafiklari ishlab chiqildi va bugungi kunga qadargrafikka asosan 5,2 trln

soʻmdan 3,9 trln soʻm (76%) qarzдорliklar Jamgʻarmaga qaytarildi.

Bundan tashqari, 2022-yil paxta yigʻim terim xarajatlarini moliyalashtirish uchun Jamgʻarmadan ajratilgan 3,3 trln soʻm imtiyozli kreditlarning 3,2 trln soʻm yaʼni 97 foizi Jamgʻarmaga qaytarildi.

2022-yil paxta hosilidan fermer xoʻjaliklariga 127 ta paxta-toʻqimachilik klasterlari tomonidan 8,5 trln soʻm yakuniy xisob-kitobdan boʻlgan qarzдорliklarni toʻlab berilishi taʼminlandi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida joriy yil 9-noyabr kuni boʻlib oʻtgan video selektor yigʻilishida berilgan topshiriqlarga asosan paxta-toʻqimachilik klasterlari tomonidan qilinayotgan xarajatlar va daromadlari boʻyicha haftalik ish tizimini yoʻlga qoʻyilib, klasterlarning sohada qilayotgan xarajatlari, olayotgan daromalari hamda debitor va kreditor qarzдорliklari toʻgʻrisidagi maʼlumot bazasini shakllantirildi.

2024 boshhoqli don yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun klaster va fermer xoʻjaliklari tomonidan tijorat banklari orqali Jamgʻarmaga taqdim etilgan 2,9 trln soʻmlik buyurtmanomalariga asosan Jamgʻarmadan 2,5 trln soʻm imtiyozli kreditlar ajratib berildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar, dasturlar, “Yoʻl xarita”lari va boshqa hujjatlar doirasida tarmoq, soha, yoʻnalishlar va hududlarda amalga oshirilgan islohot va transformatsiya natijalari.

Joriy yilning oʻzida agrar sohani iqtisodiy rivojlantirish va moliyalashtirish yanada takomillashtirish va qoʻllab-quvvatlash maqsadida 7 ta normativ-huquqiy xujjatlar hamda 4 ta bayonlar ishlab chiqilib, tasdiqlangan.

Xususan, 2023-yil 26-yanvarda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Paxta xom ashyosi yetishtiruvchilar

faoliyatini yanada qoʻllab-quvvatlashning qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-23-sonli qarori qabul qilinib, sohadagi klasterlarga koʻplab imkoniyatlar yaratildi.

Jumladan,

- fyuchers shartnomalarini soliq organlarining elektron axborot tizimidan roʻyxatdan oʻtkazish va Qishloq xoʻjaligi vazirligining “Agroplatforma” axborot tizimiga integratsiya qilish mexanizmi yaratildi;

- paxta-toʻqimachilik klasterlari boʻnak mablagʻlarini ishlab chiqaruvchilar bilan kelishuv asosida pul va moddiy resurslar shaklida amalga oshirish imkoniyati yaratildi;

- klasterlar faoliyatiga mahalliy hokimliklarning aralashuvini hamda paxta-toʻqimachilik klasterlariga toʻrt tomonlama bitim doirasida olingan majburiyatlardan tashqari qoʻshimcha majburiyatlarni yuklash taqiqlandi;

- sohada bozor mexanizmlarini joriy etish, bunda fermer va klasterlar paxta narxini oʻzaro kelishgan xolda belgilash imkoniyati yaratildi;

- Qishloq xoʻjaligi vazirligi tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida paxta-toʻqimachilik klasterlarini jalb etgan holda gʻoʻzaning eng hosildor navlarini chetdan olib kirib, belgilangan tartibda qatʼiy karantin himoyasi ostida izolyatsiyalangan muhitda seleksiya maqsadlari uchun sinovdan oʻtkazishga ruxsat berildi;

- lazerliqurilmagaegaavtomatlashtirilgan yer tekislagich agregatlarini sotib olgan subyektlarga yer tekislagich agregatlari qiymatining 30 foizi Davlat byudjetidan qoplab berildi;

- paxta xom ashyosi yetishtiriladigan maydonlarni nasos orqali sugʻorishda sarflanadigan elektr energiyasi

xarajatlarining 50 foizigacha qismi Davlat byudjetidan qoplab berildi;

- Davlat-xususiy sheriklik asosida klasterlar mablag'lari hisobidan uchuvchisiz uchadigan apparat (dron)larni xorijdan olib kelish va vazirlik huzuridagi Qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish agentligi va uning hududiy bo'linmalari orqali qishloq xo'jaligi korxonalariga xizmatlar ko'rsatishga ruxsat berildi;

- klasterlar bilan tuzilgan to'rt tomonlama bitimga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Shuningdek vazirlik tomonidan paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini baholashning shaffof tizimi ishlab chiqildi, bundan keyin klasterlarning samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlash onlayn dastur orqali amalga oshiriladi.

2023-yilda Qishloq xo'jaligi maxsulot ishlab chiqaruvchilarga jami 840 mlrd so'm subsidiya mablag'lari ajratilgan. Jumladan:

1. Suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishga:

Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan g'allachilik, sabzavotchilik va oziqabop ekinlar yo'nalishida 7 463 gektar yer maydonlarida suv tejovchi texnologiyalar joriy qilgan su'bektlarga xarajatlarini bir qismini qoplash maqsadida 26,4 mlrd. so'm subsidiya mablag'lari ajratib berildi. Ma'lumot uchun: g'allachilik yo'nalishida 18,5 mlrd.so'm, Kartoshka yo'nalishida 1,6 mlrd.so'm, Ozuqabop ekin yo'nalishida 5,0 mlrd.so'm, Sabzavot yo'nalishida 1,3 mlrd. so'm, subsidiya mablag'lari ajratilgan.

2. Bog'dorchilikni rivojlantirishga.

Qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish agentligi tomonidan 2023-yilda 225 ta tashabbuskorlarning 240 ta loyihasiga 99,2 mlrd.so'm, shundan, 4 566 gektar intensiv meva va tokzorlarning tomchilatib sug'orish tizimlariga 33,6 mlrd.so'm, 248 ta quduq/

nasos stansiyalari uchun 24,7 mlrd.so'm, 6 907 139 ming dona payvandtag in-vitro ko'chatlari uchun 28,2 mlrd.so'm, yangi limonzorlar uchun 405 mln.so'm, uzum plantatsiyalarida o'rnatilgan 811 866 dona shpalerlar uchun 12 284 mln.so'm hamda 10 quvvatli muqobil energiya qurilmasi uchun 51 mln.so'm mablag' ajratildi.

3. Chorvachilik tarmog'ini rag'batlantirishga.

Veterinariya qo'mitasi tomonidan chorva, parranda va baliq yetishtirish, import qilingan naslli qoramollar, import qilingan naslli qo'y echkilar, import qilingan bir kunlik jo'jalar, mahalliy yetishtirilgan naslli qoramollar uchun byudjetdan 638,3 mlrd so'm ajratilgan.

Bunda import qilingan naslli qo'y va echkilarga 6,4 mlrd so'm, import qilingan naslli qora mollar uchun 5,3 mlrd so'm, import qilingan bir kunlik jo'jalar uchun 22 mlrd so'm, ichki xo'jaliklarda yetishtirilgan naslli qora mollar uchun 1 mlrd so'm, tirik vazndagi yirik va mayda shoxli qora mollar go'shti uchun 168,2 mlrd so'm, sut mahsulotini yetishtirishga 43 mlrd so'm, parranda go'shti uchun 326,4 mlrd so'm, parranda tuxumiga 48 mlrd so'm, baliq yetishtirishga 18 mlrd so'm.


4. Ipakchilik va qorako'lchilik soxasini rivojlantirishga:

Ipakchilik qo'mitasi tomonidan, qorako'l terisi eksportini rag'batlantirishga hamda yaylov va tutzorlarda tik quduqlar burg'ulash, nasos stansiyalarini qurish harajatlari uchun byudjetdan 76 mlrd so'm ajratilgan.

Jumladan, Qorako'lchilik klasterlariga suv chiqarish uchun nasos stansiyalarini qurishga 19,8 mlrd so'm hamda qorako'lchilik subektilariga ular tomonidan eksrpot qilingan qorako'l va qorako'lcha teri uchun 3 mlrd so'm, ipak qurti urug'i uchun subsidiya 53,2 mlrd so'm.

Jumladan, Qorako'lchilik klasterlariga suv chiqarish uchun nasos stansiyalarini qurishga 19,8 mlrd so'm hamda qorako'lchilik subektillariga ular tomonidan eksport qilingan qorako'l va qorako'lcha teri uchun 3 mlrd so'm, ipak qurti urug'i uchun subsidiya 53,2 mlrd so'm.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar, mlrd. s'm



Manba: Markaziy Bank

1.7. Qishloq xo'jaligida ilm-fan, ta'lim

Vazirlik tizimida 10 ta oliy ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda. 2023-yilda 1 ta yangi OTM tashkil etildi (Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti). OTM larda jami 36,7 ming nafar talabalarga 1,8 ming nafar professor-o'qituvchilar ta'lim berib kelmoqda.

2023/2024 o'quv yilida OTM larga 62 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha jami 8 ming 882 nafar, shundan, 1 ming 853 nafar davlat granti, 7 ming 25 nafar to'lov-kontrakt asosida talabalar qabul qilingan.

OTM lari ilmiy-tadqiqot faoliyati

OTM larning ilmiy salohiyati o'rtacha 48,6 foizni tashkil etadi. 2023-yilda 46 ta PhD hamda 13 ta DSc dissertatsiya ishlari himoya qilingan. 2023-yilda 36 ta ilmiy loyihalar amalga oshirilib, 3,7 mlrd. so'mlik loyihalar tijoratlashtirildi.

Xorijiy hamkorlik

7 ta xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan qo'shma ta'lim dasturlari tashkil etilgan. (Vitautas Magnus University (Litva), EGE university (Turkiya), Latvia University of Life Sciences and Technologies (Latviya), WSB university (Polsha), MATE university (Vengriya), Northwestern University of Agriculture and Forestry (Xitoy), Irkutsk davlat agrar universiteti (Rossiya)) Xorijdan 130 nafar malakali professorlar jalb etilib, 150 nafar mahalliy professor-o'qituvchilar malaka oshirishga hamda 350 nafar talabalar stajirovkaga yuborilgan.

TDau "Buyuk ipak yo'li qishloq xo'jaligi ta'limi va ilmiy-texnik innovatsiyalar Alyansi" ga qabul qilinib, kengashga a'zo 30 ta OTM bilan hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

1.8. Ma'muriy islohotlar natijalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-iyundagi "Ma'muriy islohotlar doirasida qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-90-son Farmoni Qishloq xo'jaligida institutsional va tarkibiy islohotlar sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati, ularning samarali amalga oshirilishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi sohasida institutsional va tarkibiy islohotlar 2023-yilda yanada izchil va tizimli davom ettirildi.

Iqtisodiyotning real sektorlari kabi qishloq xo'jaligi sohasida xususiy tadbirkorlar uchun kafolatlangan va huquqiy jihatdan himoyalangan sharoitlarni yaratish, ichki va tashqi investitsiyalarni jalb qilish, qo'shilgan qiymat zanjirini barqaror rivojlantirish uchun shaffof va jozibador muhitni yaratish maqsadida sohada yuqori samara va aniq pirovard natijalarni ta'minlashga qaratilgan boshqaruv tizimi yaratildi.

2023-yilda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati sohalarida 142 ta loyihalarda 1,1 mlrd dollarlik xorijiy investitsiyalar jalb qilindi.

Xususan, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) ishtirokida "Mevasabzavotchilik tarmog'ida qo'shilgan qiymat zanjiri yaratishni rivojlantirish (2-bosqich)" loyihasida 200 mln doll. (15.03.2023-y. PQ-96), Xalqaro taraqqiyot uyushmasi hamda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida "Chorvachilik sohasini rivojlantirish (2-bosqich)" loyihasida 240 mln dollar (05.06.2023-y., PQ-211).

TIZIM TASHKILOTLARI FAOLIYATI NATIJALARI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI HUZURIDAGI AGROSANOAT MAJMUU USTIDAN NAZORAT QILISH INSpeksiyasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-martdagi 4241-sonli qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda PF-269-son Farmoniga muvofiq Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tarkibiy tuzilmasiga o'tkazildi.

1. Qishloq xo'jaligi sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda 90 199 ta nazorat tadbirlarida (20 504 ta, shundan 619 ta xabardor qilish tartibida tekshirish) 8 298 ta bayonnomalar rasmiylashtirilib 2 mlrd. jarima, 567 ta material huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan, 2 331 ta taqdimnoma, 65 303 ta ogohlantiruv xatlari berildi.

Agrar va oziq-ovqat sohalarida qonun buzilish holatlarini oldini olish maqsadida qishloq xo'jaligi subyektlarida 90 mingdan ortiq profilaktika va nazorat tadbirlari amalga oshirildi.

2. Qishloq xo'jaligi, melioratsiya va yo'l-qurilish texnikalari holatini nazorat qilishda 350 mingta texnika elektron bazasi yaratildi, 11 ta tashkilotlar axborot tizimlari bilan integratsiya qilindi, 6 turdagi Yagona interaktiv davlat xizmatlari (may.gov.uz)

portalida murojaat qilish imkoniyati yaratildi. 45 ming dona texnik pasport va 30 ming dona davlat raqam belgisi 27 ming dona traktorchi-mashinist guvohnomalar berildi.

3. Paxta xom-ashyosi, don va ularni qayta ishlashdan olingan mahsulotlardan foydalanishni nazorat qilishda mavsumda 98,7 foiz paxta xom-ashyosi (1, 2-nav) qabul qilinishiga erishildi. 38 ta paxta texnik chigitini qayta ishlash yog'moy korxonalaridan 10 ta korxona talablarga muvofiq emasligi aniqlandi. Don va don mahsulotlarini eksport-import jarayonlarida me'yoriy huquqiy hujjatlarga rioya etilishi nazorat qilinib, import qilingan 2 mln. 979 ming tonna bug'doyning sifati bo'yicha tegishli xulosalar berildi.

4. Qishloq xo'jaligida agrotexnik tadbirlar o'tkazilishini nazorat qilishda qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish hamda yetishtirishda agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishi yuzasidan joylarda 2011 ta tekshirishlar, 12 205 ta monitoringlar o'tkazildi. Mazkur tekshirishlar davomida 2335 ta aniqlangan kamchiliklar yuzasidan 1731 ta yozma ko'rsatma, 285 ta taqdimnoma va 795 ta ogohlantirish xatlari kiritildi.

5. Qishloq xo'jaligi ekinlari urug'chiligini nazorat qilishda 10,5 ming gektar urug'lik paxta, 17,8 ming gektar urug'lik boshqoli don va 6,6 ming gektar urug'lik kartoshka maydonlarida urug'lik talabiga javob bermaganligi uchun yaroqsizga chiqarildi. 133,3 ming tonna paxta, 259,4 ming tonna don, 50 ming tonna kartoshka va 7,3 ming tonna boshqa ekin urug'lari belgilangan tartibda saqlanishi nazoratga olindi.

6. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanishni nazorat qilishda 301 gektar qishloq xo'jaligi yerlarida 597 ta qonun buzilish holatlari aniqlanib 109 mlrd.so'm miqdorida qishloq xo'jaligiga yetkazilgan zararlar hisoblangan. Aniqlangan holatlar yuzasidan to'plangan

materiallar qonuniy qaror qabul qilish uchun 427 ta prokuraturaga, 79 ta IIV bo'linmalariga, 42 ta sudlarga va 31 ta boshqa tashkilotlarga yuborilgan.

VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH QO'MITASI

Qo'mitaning asosiy vazifalaridan biri vyeterinariya sohasi va chorvachilikning barcha tarmoqlarini, shu jumladan, qoramolchilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va quyonchilikni rivojlantirish, naslchilik-seleksiya ishlarini muvofiqlashtirish hamda ushbu yo'nalishlar bo'yicha maqsadli dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishdan iborat.

2023-yilda chorvachilik tarmoqlarida qiymati 7,4 trln so'mlik 2 145 ta loyihalar ishga tushirilib, 170 ming ta ish o'rinlari yaratildi.

Xorijiy davlatlardan 135 ming bosh qoramol va 228 ming bosh qo'y-echkilar olib kelindi.

Naslchilik xo'jaliklari soni 1604 taga, naslli buqa urug'i ishlab chiqaruvchi korxonalar soni 3 taga yetkazildi.

Yil boshidan buyon 2,4 mln bosh sigirlar sun'iy urug'lantirilib, nasli yaxshilangan qoramollar bosh soni 72 foizga yetkazildi.

89 ta go'sht-sut yetishtiruvchi hamda qayta ishlovchi korxonalar tomonidan aholiga 6,2 ming bosh chorva mollari kooperatsiya usulida yetkazib berildi.

431 ming ga (2022-yilga nisb. +25 ming.ga) asosiy, 90,2 ming ga oraliq hamda g'alladan bo'shagan 221,7 ming ga maydonga takroriy ozuqabop ekinlar ekildi.

Chorva qishlovi uchun 26 mln tn (shundan chorva f.x 4,0 mln tn) dag'al xashak jamg'arildi.

Paxta-g'allachilik subyektlarining 141,1 ming ga maydoniga almashlab beda va boshqa chorva ozuqa ekinlari ekildi.

Chorvachilik subyektlarida 252 ta intensiv "Gidroponika" texnologiyasi asosida ozuqa ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish maqsadida joriy yilda 21 ta chorvachilikka ixtisoslashgan yirik xo'jaliklarda biogaz va biogomus ishlab chiqarishni yo'lga qo'yildi.

Chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish uchun Xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi loyihalar doirasida 240 mln dollar mablag'lar jalb qilindi.

Veterinar osoyishtalikni ta'minlash maqsadida 37,5 mln bosh chorva mollari 11 turdagi, 94 mln bosh parrandalar 4 turdagi kasalliklarga qarshi emlandi, 14,5 mln bosh hayvonlarda diagnostik tahlillar o'tkazildi,

38 mln bosh chorva mollariga profilaktik ishlov berildi.

200 mlrd so'mlik pullik veterinariya xizmatlari ko'rsatildi.

647 nafar veterinariya mutaxassislarining malakasi oshirildi va qayta tayyorlandi, ilmiy muassasalarda ilmiy darajali xodimlar soni 45 foizga oshirildi.

Yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotidagi chorvachilik mahsulotlarining hajmi 202 trln (ulushi 49,9%) so'mni tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 103,7 foiz o'sishga erishildi.

Qoramollar bosh soni 14,1 mln boshga, qo'y-echkilar 24,1 mln boshga, parrandalar bosh soni 103 mln boshga yetkaziladi, 2,8 mln tn go'sht (103,9 %) (tirik vaznda), 12 mln tn sut (102,9%), 8,5 mlrd dona tuxum (104,4%) va 200 ming tn (107,4%) baliq yetishtirildi.



O'SIMLIKLAR KARANTINI VA HIMOYASI AGENTLIGI

Respublikada o'simliklar karantini va himoyasi sohasida o'simliklarni zararli organizmlardan ishonchli himoya qilish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, fitosanitar toza mahsulotlar yetishtirishda agroklastlar, fermer xo'jaliklari va aholi tomorqa yer egalarini qo'llab-quvvatlash hamda ularga yaqindan ko'maklashish, shuningdek, raqamlashtirishni keng joriy qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilgan.

1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport

hajmini oshirish va 2-3 barobar qimmatroq narxlarda eksport qilish orqali yalpi ichki mahsulotlar hajmini oshirish, valyuta tushumini ko'paytirish maqsadida 80 ta davlatga qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti uchun 620 ta fitosanitar ruxsatlar olinishi ta'minlandi.

Ma'lumot uchun, 2023-yilda 12 ta davlatga jami 23 turdagi mahsulot eksportiga fitosanitar ruxsatlar olinishi ta'minlandi. Yaponiyaga 2 tur (qizilmiya, no'xat), Buyuk Britaniyaga 3 tur (olxo'ri, nektarin,

o'rik), Xitoyga 3 tur (uzum, quritilgan jiya, qizilmiya), Koreyaga 2 tur (quritilgan bulg'or qalampiri, sabzi), AQSHga 2 tur (bodom, no'xat), Indoneziyaga 1 tur (gilos), Misrga 2 tur (olma, anor), Pokistonga 2 tur (achchiq qalampir, kunjut), Iordaniyaga 3 tur (gilos, olma, limon), Peruga 1 tur (shaftoli), Nigerga 1 tur (qovun), Palauga 1 tur (sarimsoq piyoz).

2023-yilda meva-sabzavotlar eksport ulushi 7,9 % ga oshdi. Xususan, piyoz 263,8 ming tn, mosh 148,5 ming tn, qovun va tarvuz 147,6 ming tn, uzum 121 ming tn, shaftoli 87,2 ming tn, o'rik 63 ming tn, pomidor 54,2 ming tn,

mayiz 52,2 ming tn, xurmo 50,3 ming tn, gilos 45 ming tn, quritilgan olxo'ri 34 ming tn, tariq 15,3 ming tn.

2. Xalqaro tashkilotlar va moliya institutlarining jami 19,7 mln. AQSH dollariga teng grant mablag'lari jalb etildi, shundan, 6,2 mln. AQSH dollari o'zlashtirildi.

Jahon bankining 5,8 mln. dollar, KOICAning (Koreya) 6,7 mln. dollar, Xitoyning 2,9 mln. dollar, GIZning (Germaniya) 2,2 mln. dollar, FAOning 500 ming dollar, Xalqaro moliya korporatsiyasining 300 ming dollar, USAIDning (AQSH) 200 ming dollar mablag'i jalb qilindi.

Mazkur mablag'lar markaziy fitosanitariya laboratoriyasi, hududiy fitosanitariya va agrokimyoviy tahlil laboratoriyalarini asbob-uskunalar, chigirtkaga qarshi kurash xizmatini texnikalar bilan jihozlash, shuningdek, sohani raqamlashtirish va mutaxassislar malakasini oshirish uchun yo'naltirildi.

3. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, axborot almashinuv tizimini integratsiyalash hamda mahsulotlar eksport geografiyasini kengaytirish maqsadida 13 ta xalqaro hujjat

imzolandi.

10 ta Memorandum (2 ta Rossiya Federatsiyasi, 1 ta Qirg'iziston, 1 ta Qozog'iston, 1 ta Xitoy, 1 ta Qatar, 1 ta Xorvatiya, 1 ta Ispaniya, 1 ta Italiya), 3 ta Bayonnoma (2 ta Xitoy va 1 ta Belarus Respublikasi).

4. Yerdan foydalanuvchilar tomonidan tuproqning agrokimyoviy holatini va o'simlik talabini inobatga olmasdan mineral o'g'itlarni qo'llanilishi, o'g'itlarni 15 barobargacha ko'p solinishiga olib kelmoqda. Bu esa, mineral o'g'itlar samaradorligini pasayishiga va mahsulot tannarxining oshishiga sabab bo'lmoqda.

Bunga barham berish maqsadida agentlik tizimida 14 ta statsionar va 5 ta mobil hamda xususiy sektorda 19 ta statsionar tuproq agrokimyoviy tahlil laboratoriyalari ishga tushirilib, 19 351 ta yerdan foydalanuvchilarning 1 mln. 40 ming gektar maydonda tuproqning (azot, fosfor, kaliy va gumus) konturlar kesimida tuproq tahlili o'tkazilib, mineral o'g'itlarni ilmiy talab asosida qo'llash me'yori belgilab berildi. "GSP+" tizimi doirasida 200 ming gektar maydon xalqaro talablarga moslashtirildi. Tuproq va yetishtirilayotgan mahsulotlar tarkibidagi pestitsid, nitrat va og'ir metallar qoldiqlarini dala sharoitida tahlillarini o'tkazish bo'yicha 15 ta mobil laboratoriyalar tashkil qilinmoqda.

5. Zararkunandalarni erta muddatlarda aniqlash tizimini rivojlantirish maqsadida Italiyaning Sigmaltaly kompaniyasi bilan hamkorlikda Davlat-xususiy sheriklik asosida qiymati 5,6 mln. dollarlik, yillik quvvati 4,9 mln. donani tashkil etadigan 4 turdagi feromon tutqichlarni ishlab chiqaruvchi korxona tashkil qilindi.

6. Tuproqdagi gumus miqdorini oshirish maqsadida karantin inspektorlari ko'magida yerdan foydalanuvchilar tomonidan konturbay kompost tayyorlash tizimi yo'lga qo'yilib, 760 ming gektar

maydonga yetadigan 3,8 mln. tonna kompost tayyorlanib, dalaga kiritildi.

7. “e-Fitouz” AAT xalqaro Konvensiyaning (IPPC) “e-Phyto Solutions” ATga integratsiya qilinib, 80 dan ortiq davlatlar bilan elektron ma’lumotlar almashinuvi imkoniyati yaratildi.

8. Sohada 7 ta yangi axborot tizimi joriy qilinib, sohadagi 40 ta yo’nalishlar (82 %) raqamlashtirildi. Agroklastlar, fermer xo’jaliklari, tadbirkorlik subyektlari va aholi tomorqa yer egalari xizmat ko’rsatadigan idoralarning barcha axborot tizimlariga integratsiya qilindi.

“e-Fitouz”, “Dala nazorati”, “Chigirtka”, “ye-Biosifat”, “Uzagrolab”, “Statistika. karantin.uz” va “Agroko’makchi” axborot tizimlari.

“Agroko’makchi” mobil ilovada zararli organizmlarga qarshi uyg’unlashgan (IPM) kurash; himoya qilish vositalari va mineral o’g’itlar; biolaboratoriyalar; o’simlik klinikalari; meva-sabzavotlarni qadoqlash korxonalari; xorijga eksport qilinishi mumkin bo’lgan meva-sabzavotlar hamda xorijiy davlatlar; uyg’unlashgan himoya qilish bo’yicha tavsiyalar; agrokimyoviy tahlil laboratoriyalari; importda hududlarning fitosanitar holati; inspektorini chaqirish tugmasi va aholiga ko’rsatilgan xizmatga baho berish yo’lga qo’yildi.

Elektron dala nazorati, 24/7 xizmat, inspektorini chaqirish tugmasi, QR-kod tizimi, 6 turdagi ariza o’rniga 1 ta elektron ariza, SMS-xabar, 100 % onlayn oferta va to’lov, ruxsatnomalarni ko’rib chiqish muddatlari eksportda 10 kundan 1 kungacha, importda 30 kundan 3 kungacha qisqartirildi, 1288 qisqa raqamli “Call markaz” ishga tushirildi.

9. Uzagrolab.uz elektron platformasida agroklastlar va fermer xo’jaliklarining 850 ming gektar maydonlari konturbay agrokimyoviy xaritanomalari elektron

shaklda tayyorlab berildi.

10. 149 mingta xalqaro va 100 mingta ichki fitosanitariya sertifikatlari, 126 mingta transport birligini ochish va karantin ko’rigi dalolatnomasi, 34 mingta import karantin ruxsatnomasi, 64 mingta zararsizlantirish dalolatnomasi elektron rasmiylashtirildi.

11. Eksport mahsulotlari bo’yicha 153 mingta ekspertiza o’tkazilib, 1 237 ta holatda 11 turdagi karantin obyektlari, Import mahsulotlari bo’yicha 220 mingta ekspertiza o’tkazilib, 1 470 ta holatda 21 turdagi karantin obyektlari aniqlandi va tegishli fitosanitariya choralari ko’rildi.

12. 24 ta kinolog va xizmat itlari tashkil etilib, 1 627 ta holatda 41,5 tn va 63,5 ming dona ekish materiallari va boshqa turdagi karantin ostidagi mahsulotlar noqonuniy olib kirilishi oldi olindi;

773 tn va 16 ming dona zararlangan mahsulot eksportyor davlatlarga qaytarildi hamda 4,5 tn va 405 ming dona mahsulot yo’q qilindi.

13. Mahsulotlar, transport birliklari, omborxonalarda 10,1 mln. kub m.

va 7,1 mln. kv.m. ga zararsizlantirish (fumigatsiya) ishlari amalga oshirildi.

14. Xususiy sektorda biolaboratoriyalar soni 639 taga (qo’shimcha 21 ta)

va o’simlik klinikalari soni 953 taga yetkazildi (qo’shimcha 57 ta), 3 982 ta xonadonda biolaboratoriyalarning mavsumiy shoxobchalari hamda aholi xonadonlariga xizmat ko’rsatuvchi 1 855 ta o’simliklarni himoya qilish otryadlari tashkil etilishiga ko’maklashilib, xususiy sektorda 10,1 mingdan ortiq ish o’rinlari yaratilishiga erishildi.

15. Zararli chigirtkaga qarshi 493 ming gektarda, 26,6 mln. tup va 4,8 ming gektar tutzorlarda kimyoviy ishlov ishlari o’tkazildi.



QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI HUZURIDAGI QISHLOQ XO'JALIGIDA XIZMATLAR KO'RSATISH AGENTLIGI

Joriy yilning bahor va kuz mavsumida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda jami 25 ming gektar mevali bog' va 86 ming gektarda tokzorlar barpo etildi hamda 1-dekabr holatiga barcha toifa xo'jaliklarida jami 3 mln 13 ming tonna meva va 1 mln 846 ming tonna uzum mahsulotlari yetishtirildi

Shu bilan birgalikda 68,2 ming ta fermer va qishloq xo'jaligi korxonalarining jami 58 ming gektar dala chetlariga shundan, 19,5 ming gektar tut, 5,7 ming gektar terak, 564 gektar olcha va 282 gektar bodom, 18,2 ming gektar poliz, 2,5 ming gektar sabzavot va 3 ming gektar boshqa turdagi ekinlar ekildi.

Mavjud meva-uzum ko'chatchiligiga ixtisoslashgan 9 ta "in-vitro" laboratoriyalarida virusdan holi bo'lgan 9,7 mln dona ko'chatlar, payvandtaglar va o'simliklar tayyorlandi va 5,9 mln. dona virussiz ko'chatlar fermer va qishloq xo'jaligi korxonalariga yetkazib berildi.

Agentlik tomonidan ushbu ko'chatlar uchun 23 mlrd. 683 mln. so'm subsidiya mablag'lari ajratildi.

Aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida "Bir kontur bir mahsulot" tamoyili asosida asosiy maydonlarga jami 349 ming gektar shundan 155,7 ming gektar sabzavot,

73,3 ming gektar poliz, 120 ming gektar kartoshka ekinlari ekildi. Natijada kartoshka

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi Faktlar va tendensiyalar 2023-yil



mahsuloti o'tgan yilga nisbatan 27 ming gektar ko'proq (o'tgan yilga nisbatan 104 %) ekildi.

2023-yilda 28,2 ming gektar yer maydoniga (7,4 ming gektar tomchilatib, 0,3 ming gektar yomg'irlatib sug'orish, 1,7 ming pikirovka, 0,6 ming "NetHouse", 2 ming gektar temos, 0,3 ming gektar pulsar, 16,2 ming ko'chat usulda,) intensiv usulda sabzavot yetishtirish joriy etildi. Natijada o'tgan yilga nisbatan 5 ming gektardan ortiq intensiv sabzavotchilik yo'lga qo'yilib (o'sish 121 %), hosildorlik 126 foizni tashkil etdi.

Ushbu ekin ekilayotgan maydonlarda fermer va dehqon xo'jaliklariga ko'maklashish maqsadida respublika bo'yicha 17 ta ko'chatxonalarda 154 mln. dona sabzavot-poliz ko'chatlari yetishtirilib, fermer va qishloq xo'jaligi korxonalariga yetkazib berildi. Buning natijasida ko'chat yetishtirish o'tgan yilga nisbatan 10 barobarga oshishiga erishildi.

Shu bilan birgalikda, respublikada 2023 hosili uchun jami 905,7 ming gektar (100 %) maydonda takroriy ekinlar ekildi. Agentlik ko'magida, faoliyat yuritayotgan klasterlar va yirik eksportyor korxonalar takroriy ekindan olingan hosilni kafolatli sotib olishlari bo'yicha 3,4 mln. tonnaga fyuchers shartnomalar tuzildi.

Davlat Rahbarining 2023-yil 12-apreldagi PQ-121-son qarori bilan fermerlarga yetishtirilayotgan mahsulotlarni sifatli hamda eksportbop qilib yetishtirishda ko'maklashish maqsadida, Agentlik tomonidan

360 nafar mavsumiy agronomlar ishga qabul qilindi va Agroxizmatlar ko'rsatish Markazida ularning o'quv kurslari tashkil etildi.

Shu bilan birga, Davlat Rahbarining 2023-yil 5-apreldagi

PQ-113-son qarorida yuqori avlodli

urug'lik kartoshka yetishtirishni yo'lga qo'yish belgilangan bo'lib, bugungi kunda ilmiy-tadqiqot institutlari va "Gs-Bio" MCHJ HK tomonidan joylarda 23 mln. dona super va super elita urug'lik kartoshka yetishtirildi.

Misol uchun: Agentlik tomonidan 2022-yilda Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutiga kartoshkaning birlamchi urug'chiligini yetishtirish uchun 1 mlrd.so'm maqsadli byudjet ssudasi ajratildi. Natijada Institut tomonidan bugungi kunga qadar kartoshkaning mahalliy navlaridan 2,5 mln. dona S.S.Elita urug'liklari yetishtirildi.

Respublikada jami 3 232 ta subyektning 5 374 gektar maydonda issiqxona xo'jaliklari faoliyat yuritib kelmoqda. 2022-yilning mos davriga nisbatan joriy yilda 49 ming tonna qo'shimcha mahsulot yetishtirilib, yalpi hosil 350 ming tonnani tashkil qilmoqda.

2023-yil dekabr holatiga qo'shimcha 171 gektar maydonda yangi issiqxona xo'jaliklari ishga tushirilib, 2040 nafar yangi ish o'rinlari hamda qo'shimcha 18,9 ming tonna mahsulot yetishtirish imkoniyati yaratildi.

Sohani tubdan tahlil qilish hamda issiqxona xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish maqsadida Vazirlik tomonidan "BCG. BOSTON CONSULTING GROUP" kompaniyasi jalb qilindi va sohani rivojlantirish dasturi ishlab chiqilib amaliyotga tadbiq etildi.

2023-yil eksport rejasi 1 mlrd. 599 mln. dollar bo'lib, shundan,

1 mlrd. 484 mln. dollari ho'l va quritilgan meva-sabzavot hamda 115,1 mln. dollari oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini eksport qilish belgilangan. Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida jami 1186,9 mln. dollarlik (shundan, meva-sabzavot 1052,2 mln. doll. va oziq-ovqat sanoati 134,8 mln. dollarlik meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlari

77 ta davlatga eksport qilindi.

Jumladan, eksport qilingan mahsulotlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,1 foiz yoki 58,1 mln. dollarlik (shundan, meva-sabzavot mahsulotlari 14,5 mln. dollar va oziq-ovqat sanoati mahsulotlari 43,6 mln. dollar) ko'p mahsulot eksport qilindi (1,3 barobarga o'sgan).

Eksport qilinayotgan mahsulotlar asosan Rossiya (455,7 mln. doll.), Qozog'iston (130,5 mln. doll.), Xitoy (151,9 mln. doll.), Afg'oniston (54,1 mln. doll.), Qirg'iziston (47,3 mln. doll.), Pokiston (163,2 mln. doll.), Belarussiya (14,8 mln. doll.), Tojikiston (20,4 mln. doll.), Turkiya (28,2 mln. doll.) va Iroq (9,3 mln. doll.) kabi davlatlarga eksport qilingan.

Bugungi kunda sabzavotlar (188,6 mln. doll.), mevalar (229,3 mln. doll.), dukkakli mahsulotlar (312,2 mln. doll.), uzum (78,1 mln. doll.), quritilgan meva-sabzavotlar (87,5 mln. doll.), poliz (68,6 mln. doll.) kabi mahsulotlar yuqori ko'rsatkichda eksporti amalga oshirildi.

Qishloq xo'jaligida sohani moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida Agentlikning Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligi jamg'armasi tomonidan 2023-yil uchun jami 114 mlrd.so'm mablag' ajratilgan. Ushbu mablag'lar hisobidan 2023-yilda 163 ta qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining 178 ta loyihalari uchun jami 78,1 mlrd.so'm subsidiya mablag'lari ajratildi.

Bundan tashqari, hududlarda faoliyat yuritayotgan xo'jalik va tadbirkorlik subyektlariga subsidiya olish uchun qulay imkoniyat yaratish maqsadida joriy yildan agrosubsidiya.uz platformasi to'liq ishga tushirildi.

Shu bilan birga, Agentlik tomonidan 2019-2023-yillar davomida 1338 ta xo'jalik yurituvchi subyektlariga 1 538 ta loyihalarni bajarish uchun ajratilgan 396 mlrd.so'm

mablag'lari maqsadli va samaradorligini o'rganilib, monitoring ishlari olib borildi hamda aniqlangan kamchiliklar bo'yicha mablag'larni qaytarish yuzasidan amaliy ishlar olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi PQ-225-son qarori doirasida qishloq xo'jaligi korxonalariga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi, saqlovchi va eksport qiluvchilarga talab etiladigan aylanma mablag'larni to'ldirish maqsadida 12 oy muddatga yillik 14 foiz stavkada byudjet ssudasi ajratildi.

Agentlik tomonidan jami 68 ta tadbirkorlarga 14 foiz ustama bilan jami 444 mlrd so'm (25 mlrd so'm qayta moliyalashtirilgan) qarz mablag'lari ajratildi.

Mazkur mablag'lar hisobidan 40 ta qayta ishlovchi va eksport qiluvchi korxonalarga 198 mlrd so'm ajratilishi natijasida to'xtab qolish holatiga kelgan 26 ta korxonaning faoliyati to'liq qayta ishga tushirildi.

Mazkur korxonalarning 1,9 trln so'm miqdoridagi pul aylanmasi ko'payishi hisobiga 245 mln dollarlik 96 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlarining eksport hajmi oshdi.

Natijada jami ajratilgan 444 mlrd so'm ssuda qarz mablag'lari hisobidan klasterlar tomonidan fyuchers shartnomalari asosida hamda kooperatsiya usulida kelgusi yilga 65 ming gektar maydonda faoliyat yurituvchi 4 850 ta mahsulot yetishtiruvchilar qamrab olinib, jami 201 mingdan ortiq aholi (shundan 180 ming mavsumiy) ish bilan ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar, dasturlar, "Yo'l xarita"lari va boshqa hujjatlar doirasida tarmoq, soha, yo'nalishlar va hududlarda amalga oshirilgan islohot va transformatsiya natijalari.

2023-yil 5-apreldagi PQ-113-son qarorining 4-ilova 5-bandiga muvofiq joriy

yilda hududlarda 25 ming gektar bog'lar va 35 ming gektar uzumzorlar barpo etildi. Talab etiladigan ko'chatlar va boshqa moddiy resurslarni yetkazib berishda ko'maklashildi hamda iqtisodiy samara bermayotgan 8 ming gektar yaroqsiz bog' va 3,5 ming gektar yaroqsiz uzumzorlarni rekonstruksiya qilindi.

1-ilovasiga asosan joriy yil 1-dekabr holatiga barcha toifa xo'jaliklarida jami 3 mln 13 ming tonna meva va 1 mln 846 ming tonna uzum mahsulotlari yetishtirildi.

9.4-bandida asosan hududlarning tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib, 2023-yil bahor va kuz oylarida har bir viloyatda o'rtacha 250-300 gektardan namunaviy bog'-tokzorlar barpo etildi.

9.5-bandiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda mavjud bog'dorchilik va uzumchilik bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari ro'yxati shakllantirilib, "ArcGIS FieldMaps" platformasi orqali to'liq raqamlashtirgan holda mevali bog' va uzumzorlar pasporti yaratildi.

2023-yil 12-apreldagi PQ-121-son qarorning 1-ilovaga muvofiq 68,2 ming ta fermer va qishloq xo'jaligi korxonalarining jami 58 ming gektar dala chetlariga shundan, 19,5 ming gektar tut, 5,7 ming gektar terak, 564 gektar olcha va 282 gektar bodom, 18,2 ming gektar poliz, 2,5 ming gektar sabzavot va 3 ming gektar boshqa turdagi ekinlar ekildi.

Respublikadagi "Iqtisodiy jihatdan samarasiz, kam hosil beradigan bog' va tokzorlarni yaroqsiz deb topish va yer toifasiga o'zgartirish va takliflar kiritish bo'yicha komissiyasini qayta tashkil etish bo'yicha taklif ishlab chiqildi.

(Ma'lumot uchun: Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-dekabrda 1012-son qarorida hududiy komissiya Yer kodeksining 34-moddasiga asosan tashkil

etilgan. Biroq, 2021-yil 16-avgustdagi O'RBQ-708-son Qonuniga asosan mazkur modda o'z kuchini yo'qotgan. Natijada kam hosil beradigan samarasiz bog'-tokzorlarni yangilashda fermer xo'jaliklariga nisbatan ta'sir chorasi mavjud emas).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-sentyabrdagi PQ-373-son qaroriga muvofiq, 2022/2023-yillarda jami 675 ming nafar fuqarolarga 188,7 ming gektar yer maydonlari dehqon xo'jaliklari uchun ajratildi.

Dehqon xo'jaliklari tomonidan mavsumda 187,8 ming gektar yer maydoni ekilib, shundan 21 ming gektar kartoshka, 13,6 ming gektar moyli, 60,4 ming gektar sabzavot, 25,1 ming gektar poliz, 31,4 ming gektar dukkakli, 14,1 ming gektar g'alla va 22,1 ming gektar boshqa ekinlar ekildi. Shuni hisobiga 3,2 mln tonnadan ortiq yalpi hosil olindi va 1 mln 490 ming nafar aholining qishloq xo'jaligida bandligi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2022-yil 2-noyabrdagi "Issiqxona xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-413-son qarori bilan 3 030 ta issiqxona xo'jaliklarining 8,8 trln. so'm kredit mablag'larining qaytarish muddati 14 yilga uzaytirildi.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-oktyabrdagi "Issiqxona xo'jaliklari va meva-sabzavotlarni eksport qiluvchi korxonalarning faoliyatini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi VM-567-son qarori bilan issiqxona xo'jaliklariga bir qator imkoniyatlar yaratib berildi.

Issiqxona xo'jaliklariga ko'mir qozonini xarid qilish xarajatlarining 20 foizini davlat tomonidan qoplab berish tartibi joriy qilindi.

Shu bilan birga issiqxona xo'jaliklarida serdaromad yangi ekin turlarini yetishtirish

hamda hosildorlik va daromadni oshirish maqsadida issiqxona xo'jaliklariga xorijdan malakali agronom, entomolog va laboratoriya mutaxassislarini jalb qilish xarajatlarining 50 foizi, biroq bir oyga 1 nafar mutaxassis uchun 1 ming AQSH dollari ekvivalentidan oshmagan qismi Davlat byudjetidan qoplab berish joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-avgustdagi PQ-260-son qarorining 11-bandiga asosan Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligining Vinochilikni rivojlantirish jamg'armasining barcha huquq va majburiyatlari, g'aznachilik hisobvaraqlaridagi 218 mlrd. so'm qoldiq mablag'lari hamda 2023-yil 1-yanvargacha tadbirkorlik subyektlari va tijorat banklariga berilgan qarz (kredit) hisobidan qaytadigan mablag'lar (resurslar) bilan birgalikda Agentlikka o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 10-iyundagi 327-sonli qarorlariga asosan Agentlik tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilariga 3 712 ga maydonda yangi tashkil etilgan intensiv bog' va tokzorlar uchun jami 43,8 mlrd.so'm subsidiya mablag'lari ajratilgan. Shundan:

- yangi intensiv bog' va tokzorlarda joriy qilingan tomchilatib sug'orish texnologiyasi uchun 28,2 mlrd.so'm (3 712 ga);

- 156 ta suv chiqarish uchun

burg'ilangan quduq, shuningdek, daryolar, kanallar hamda boshqa suv havzalaridan suvni tortish maqsadida nasos stansiyasini qurishga 15,6 mlrd.so'm;

- tokzorlarda uzum ko'chatlarini ko'tarish maqsadida 587 893 dona shpaler uchun 8,6 mlrd.so'm subsidiya ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-iyuldagi 458-son qaroriga asosan 6,4 mln. dona "in-vitro" ko'chatlari uchun 25,3 mlrd.so'm mablag' ajratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi 24-son qaroriga asosan yangi limonzorlar barpo etish va ko'chatlar xarid qilish bo'yicha bilan bog'liq xarajatlarga 405 mln. so'm (13 037 dona limon ko'chati) subsidiya ajratildi.

Shu bilan birga, Davlat Rahbarining 2023-yil 3-avgustdagi PQ-260-son qarorining 11 bandiga asosan Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligining Vinochilikni rivojlan-tirish jamg'armasining barcha huquq va majburiyatlari, g'aznachilik hisobvaraqlaridagi 218 mlrd. so'm qoldiq mablag'lari hamda 2023-yil 1-yanvargacha tadbirkorlik subyektlari va tijorat banklariga berilgan qarz (kredit) hisobidan qaytadigan mablag'lar (resurslar) bilan birgalikda Agentlikka o'tkazish belgilangan.



ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИНИ ДАВЛАТ ТОМОНИДАН ҚўЛЛАБ-ҚўВАТЛАШ

БЮДЖЕТ ССУДАСИ ЙўНАЛИШИ



СУБСИДИЯ ЙўНАЛИШИ



МУАММО ВА ТАҚЛИФЛАР



МУАММО ВА ТАҚЛИФЛАР






«АГРОСЕРВИС ОПЕРАТОР» ДУҚ ТОМОНИДАН АМАЛГА ОШИРИЛАЁТГАН ИШЛАР

2022 йил 27 апрелдаги ПҚ-225-сонли қарор ижроси

- Сервис ва ишончли уруғ ҳамда кўчат етказиб берилди - 37,2 млрд. сўм;
 - Минерал ўғит ва кўнғейв воситалар билан таъминланди - 54,4 млрд. сўм;
 - Ёқилган маҳсулотлари билан таъминланди - 11,2 млрд. сўм;
- Жами:** 102,8 млрд. сўм.

Экин турлари	Экин майдони, 5000 га	Жами ҳосил
савбабот	2 650	106 минг тонна
духанақли	850	19 минг тонна
мадди	1 000	20 минг тонна
картошка	500	1,5 минг тонна
Қаҳраб олинган ер майдони		5 минг гектар
Таъминланган ива ўринлар сони		27,5 минг нафар
иш. чет элдан қайтарилган сони		1,5 минг нафар
Етиштирилган янги маҳсулот		140,5 минг тонна
Экспортга йўналтирилган маҳсулот		82 минг тонна
Ички бозорга йўналтирилган маҳсулот		64,5 минг тонна



"GRAPES AND GARDEN INVESTMENT" AJ TOMONIDAN ОЛИБ БОРИЛАЁТГАН ИШЛАР			
АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИШЛАР		2024-йилда амалга ошириладиган лойиҳалар	
Мевали бог-токзорлар барпо этилиши Фарғона вилояти, Қўштепа туманида интенсив бог барпо этилди.  Мева тури: ЎРИК ва ГИЛОС Майdonи: 151,8 гектар 		Жамият томонидан барпо этилган боғларни аҳолига лизинг асосида сотиш Фарғона вилояти, Қўштепа тумани Ташаббускор сони: 15 нафар Майdonи: 53,5 гектар  	
Сурхондарё вилояти, Олтинсой туманида зайтун плантацияси барпо этилди. Мева тури: ЗАЙТУН (Arbequina) 		Жамият томонидан "In-vitro" лаборатория шароитида клонлаштирилган пайвандталардан кўчат етиштириш фаолияти йўлга қўйилган. Бу орқали сотиб олувчига чет давлатларидан олинган кўчатлар етиб келиши 6-7 АҚШ долларига тушишини инобатга олсак, жамият томонидан парваришланган кўчатлар 2,5 АҚШ доллари эквивалентига тўғри келмоқда. 	
Яратилган иш ўрни: 15 нафар доимий ва 200 нафар мавсумий Майdonи: 50 гектар (66 650 мут) 		Андижон вилояти (Асано тумани)да 190 гектар майдонда ўзүмзор, Жиззах вилояти (Зомин тумани)да 50 гектар майдонда гилос, Сирдарё вилояти (Ховос тумани)да 125 гектар майдонда данасиз анор кўчатларидан томчилатиб суғориш тизими асосида замонавий боғлар барпо этиш ишлари якунланади.  	
		Сурхондарё вилояти (Олтинсой тумани)да 35 гектар ўрик боғи, Хоразм вилояти (Богот тумани)да 113 гектар майдонда ўзүмзор, Қашқадарё вилояти (Шохрисабз, Чироқчи, Қамаш ва Китоб туманлари)да ўзлаштирилаётган ерлар ҳисобидан 1800 гектар майдонда замонавий интенсив боғлар ва қўшни Афғонистон Республикасида 100 гектар майдонда интенсив технологияларга асосланган "Дўстлик боғи" барпо қилинади.  	

О'ЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI QOSHDAGI "URUG'CHILIKNI RIVOJLANTIRISH MARKAZI"

Markaz tomonidan 2023-yilda:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PQ-106-sonli qaroriga asosan hududlarning tuproq-iqlim sharoiti hisobga olinib 200 ming gektar maydonlar (3167 ta subyekt 99,3 ming gektar paxta, 3318 ta subyekt 86,6 ming gektar g'alla hamda 1277 ta subyektlarning 13,4 ming gektar boshqa ekinlar) urug'chilikka ixtisoslashtirildi.

Monitoring va aprobatsiya tadbirlarida urug'liklar yetishtirishda xato-kamchiliklarga yo'l qo'ygan subyektlarning 10,5 ming gektar paxta hamda 14,6 ming gektar g'alla, 3 ming gektar boshqa ekinlar maydonlari urug'likdan chiqarildi. Buning natijasida paxta, g'alla va boshqa ekinlar navlarining navdorligi yaxshilandi.

2024-yil hosili uchun 134,5 ming (reja

nishb. 95,7 foiz) tonna urug'lik paxta, 258,8 ming (107,5 foiz) tonna boshqali don va 42,5 ming (101,2 foiz) tonna boshqa ekinlar urug'liklari jamg'arildi.

Elita urug'chilik xo'jaliklari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha "Ish reja"lar ishlab chiqildi. Ish rejalariga asosan aholiga qulaylik yaratish va import o'rnini bosuvchi urug'liklar bilan ta'minlash maqsadida har bir xo'jalik qoshida dala do'konlari tashkil etish rejalashtirilib, bugungi kungacha 17 ta dala do'konlari tashkil etildi va faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek, elita urug'chilik xo'jaliklarining moddiy texnika bazasini mustahkamlash maqsadida, 14 ta haydov, 21 ta chopiq, 10 ta transport traktorlari, 5 ta kombayn, 55 ta qishloq xo'jaligi agregatlari, 17 turdagi 190 ta laboratoriya jixozlari va kompyuter texnikalari xarid qilindi. Xo'jaliklarning 310 gektar maydonlarida

suv tejovchi texnologiyalar joriy etildi.

“O‘zpaxtasanoat” AJning 12 ta urug‘lik chigit tayyorlash va “O‘zdonmahsulot” AKning 16 ta urug‘lik don tayyorlash sexlari Markaz balansiga o‘tkazildi. Ushbu sexlarda 2023-yil hosili uchun 16,5 ming tonna urug‘lik chigit va 91,4 ming tonna urug‘lik don tayyorlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Paxtachilik Kengashining tegishli yig‘ilish bayoni ijrosini ta‘minlash maqsadida ilmiy-tadqiqot institutlari olimlarini jalb etgan holda elita urug‘chilik xo‘jaliklarining agronom va laborantlarining

malakasini oshirish maqsadida Toshkent shahrida 1 haftalik o‘quv-amaliy seminar tashkil etildi.

Elita urug‘chilik xo‘jaliklarida birlamchi urug‘chilik sifatini yanada oshirish maqsadida har bir elita urug‘chilik xo‘jaliklariga 1 nafardan urug‘chi agronom va texnik laborantlar jalb etilib, 100 nafar yangi ish o‘rinlari yaratildi.

Markaz ma‘muriy binosida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha 50 Kv/s quyosh panellari va 50 dan ortiq sensorniylampalar o‘rnatildi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi Faktlar va tendensiyalar 2023-yil

Markaz ma‘muriy binosida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha 50 Kv/s quyosh panellari va 50 dan ortiq sensorniylampalar o‘rnatildi.




2-BOB. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 426,3 trillion so‘mni (36,3 milliard AQSH dollari), o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda o‘shish sur‘ati 4,1 foizni tashkil etdi. Yalpi ichki mahsulot tarkibida qo‘shilgan qiymati 245,2 trillion so‘mni (20,9 milliard AQSH dollari) yoki 24,3 foizli yuqori ulushini saqlab qoldi. Aholi jon boshiga 11,7 million so‘mni tashkil etdi.



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining yalpi ichki mahsulotda qo'shilgan qiymati ulushi



Manba: Statistika agentligi

Tarmoqning rivojlanishiga,

-qishloq xo'jaligi mahsulotlari 404,6 trillion so'm, ulushi 94,9 foiz, o'sish sur'ati 103,9 foiz;

-o'rmon xo'jaligi mahsulotlari 10,4 trillion so'm, ulushi 2,4 foiz, o'sish sur'ati 102,7 foiz;


-qishloq xo'jaligida ko'rsatilgan xizmatlar va ovchilik 6,9 trillion so'm, ulushi 1,6 foiz, o'sish sur'ati 104,1 foiz;

-baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari 4,3 trillion so'm, ulushi 1 foiz, o'sish sur'ati 107,4 foiz darajasida o'sishi asosiy omil bo'ldi.



2023- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda **104,1 %** ni (2022- yilning yanvar-dekabr oylari mos ravishda 2021- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan – **103,6 %**) tashkil qildi.

Ma'lumot uchun: Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida tarmoqning ijobiy o'sish sur'atiga, asosan quyidagi mahsulotlarning 2022- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati qayd etilganligi orqali erishildi.



O'zbekiston Respublikasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining YAIM (YAQQ) tarkibidagi ulushi, % da

Qoraqalpog'iston Respublikasi	30,4
Andijon	38,3
Buxoro	43,4
Jizzax	49,2
Qashqadaryo	41,9
Navoiy	13,9
Namangan	41,0
Samarqand	39,6
Surxondaryo	48,7
Sirdaryo	39,2
Toshkent	22,4
Farg'ona	35,5
Xorazm	45,1


Yalpi hududiy mahsulot tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushini hududlar kesimida tahlil qilar ekanmiz, eng yuqori ulush Jizzax (**49,2 %**), shuningdek Surxondaryo (**48,7 %**) viloyatlariga to'g'ri kelsa, aksincha kam ulushga ega hududlarga Navoiy (**13,9 %**) va Toshkent (**22,4 %**) viloyatlarini keltirib o'tish mumkin.




YAIM (YAQQ) tarkibidagi ulushi

2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulot (YAIM) (yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ)) tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi **24,3 %** ni tashkil qildi.

Ma'lumot uchun: 2022- yilda YAIM (YAQQ) tarkibida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi **24,9 %** ni tashkil qilgan.




● Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
● Boshqalar



2.1. Qishloq xo'jaligi

Qishloq xo'jaligida yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish tizimi takomillashtirilishi, sohada ishlab chiqarishni bozor munosabatlariga mos rivojlanishiga zamin yaratadi. Bu borada 2023-yilda qonun (871-son, 23.10.2023) qabul qilinishi tadbirkorlarning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga yanada ko'proq investitsiyalar kiritilishiga olib keladi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish




Umumiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarining joriy davrda 63,1 foizini dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 29,8 foizi fermer xo'jaliklariga va 7,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelgan. Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining yuqori ulushi chorva mollarining asosiy qismi aholi xonadonlarida boqilayotganligi va shu bilan birgalikda chorvachilik mahsulotlarining ham asosiy qismi ishlab chiqarilganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, dehqonchilik mahsulotlarida ulushi yuqori bo'lgan sabzavot va mevalarni mamlakatimizda qishloq joylarda istiqomat qiluvchi 49 foiz aholining o'zini ushbu

mahsulotlar bilan ta'minlashi, ishlab chiqarishning katta qismini tashkil etishi sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bundan tashqari, klasterlar faoliyatini yo'lga qo'yilishi, ularga ekin maydonlarining birlashtirilishi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar toifasining ulushini yildan-yilga ortib borishiga omil bo'lmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqonchilik mahsulotlari ulushi 50,1 foizni va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 49,9 foizni tashkil qilgan.


Dehqonchilik mahsulotlari ulushining ortib borishi, intensiv ishlab chiqarish, yerlarni foydalanishga kiritish, suv tejavchi texnologiyalarni joriy qilinishi hamda o'simliklarning hosildorligi yuqori navlari o'zlashtirilishi hisobiga mahsulot hajmining ortishi bilan bog'liq. Masalan, dehqonchilik mahsulotlari o'sishiga don — 5,5%, paxta — 6%, kartoshka — 3,8%, poliz — 5,5% va mevalar — 4,1%ga yuqoriroq o'sish qayd etilgan. Bunga fermerlarni kartoshka ekishini rag'batlantirilishi, xorijdan sifatli urug'lar bilan ta'minlanishi, donning hosildorligini oshirishda ham navlarning ekin maydonlariga to'g'ri joylashtirilishi va boshqa agrotexnik tadbirlar orqali erishilmoqda.




Asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha donli ekinlar — 8 426,6 ming tn (105,5%), paxta — 3 710,3 ming tn (o'sish 106%), sabzavotlar — 11 553,7 ming tn (103,5%), kartoshka — 3 574,1 ming tn (103,8%), poliz — 2 553,5 ming tn (105,5%), mevalar — 3 121,7 ming tn (104,1%), uzum — 1 737,6 ming tn (98,7%), go'sht — 2 833,3 ming tn (103,9%), sut — 11 968,7 ming tn (102,9%), tuxum — 8 487,5 ming dona (104,4%), jun — 38,6 ming tn (103,6%), qorako'l teri — 1 321,1 ming dona (102,6%) pilla — 25,9 ming tn (106,5%) mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar bo'yicha eng yuqori o'sish ko'rsatkichlari Sirdaryoda — 106,4 foiz, Namanganda — 104,5 foiz, Samarqandda 104,4 foiz, Qashqadaryoda — 104,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, Navoiyda 101,9 foiz, Surxondaryoda — 103,7 foiz va Farg'onada 103,9 foiz darajada bo'lib, yuqori o'sish sur'atlari ta'minlanmagan.

Manba: Statistika agentligi




Manba: Statistika agentligi



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari


Respublikamiz hududida joriy yilda 88,8 ming ta fermer xo'jaliklarining 2 553 ming ga yer maydoni, 9,7 ming ta qishloq xo'jaligi tashkilotlarining 622,9 ming ga maydoni, 5 milliondan ortiq aholi tomorqalari hamda 753 ming ta dehqon xo'jaliklarining 640,9 ming ga yer maydonlarida 202,7 trillion so'mlik dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilga nisbatan 4,2 foizga o'sish kuzatilgan.

Ekinlarni yer maydonlariga oqilona joylashtirish bo'yicha olib borilgan davlat siyosati hamda bozor talabiga muvofiq 2023-yilda 47 452 ta fermer donli ekinlar, 29 192 ta fermer sabzavot, 20 271 ta fermer kartoshka, 14 054 ta fermer poliz, 25 794 ta fermer mevalar va 11 042 ta fermer uzum yetishtirgan.



Fermer xo'jaliklarining yer maydonlari bo'yicha tasniflanishi


Ko'rsatkich nomi	Fermaerlar soni, birlikda				
	1-10 gektargacha	10-30 gektargacha	30-50 gektargacha	50-100 gektargacha	100 gektardan ko'p
Biriktirilgan umumiy yer maydoni bo'yicha	23529	24202	12278	15979	11634
Ekilgan yer maydoni bo'yicha	13107	15039	10748	13874	4243



2023-yilda asosiy maydonga ekinlarning ekilishi bo'yicha eng katta ulushiga ega bo'lgan fermer xo'jaliklarining 70 foizga yaqini yer maydoni 50 gektargacha tashkil etadi. Jumladan, 23 foizida 10 gektargacha, 26,4 foizida 10-30 gektargacha, 18,9 foizida 30-50 gektargacha, 24,3 foizida 50-100 gektargacha va 7,4 foizida 100 gektardan ortiq haydaladigan yer maydonlari mavjud.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, 50 gektargacha haydaladigan yer maydoni bo'lgan fermerlar ko'pchilikni tashkil etmoqda, demak davlat siyosatining islohotlari ularga ko'proq qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

2023-yilda qishloq xo'jaligi ekinlari ekilgan maydonlar, bog'lar va tokzorlar 3 816 842 gektarni tashkil etdi. Bunda, qishloq xo'jaligi ekinlari ekilgan maydonlari 3 316 512 gektar, bog'lar 357 950 gektar, tokzorlar 142 380 gektarni tashkil etib, dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 202 679,1 mlrd.so'mga yetdi. O'rtacha 1 gektarga to'g'ri keladigan dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 53,1 mln.so'm (4524,2 dollar)ga to'g'ri keldi.



2.1.1. Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 202,7 trillion so'mni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 4,2 foizga o'sish kuzatildi.

2023-yilda dehqonchilik mahsulotlari o'sish sur'ati 104,2 foizni tashkil etgan. Bunga 2023-yilda yetishtirilgan paxta xomashyosining o'sish sur'ati 2022-yilga nisbatan 106 foizga ancha yuqori bo'lganligi, 2022-yilda esa 2021-yilga nisbatan paxtaning o'sish sur'ati 103,8 foizni tashkil etgan.



Dehqonchilik mahsulotlarini o'sish sur'atiga paxta hajmining 106 foizga (3 mln 710,3 ming tn, ulushi – 5,3%), donli ekinlar 105,5 foizga (8 mln 426,6 ming tn, ulushi – 9,1%), poliz 105,5 foizga (2 mln 553,5 ming tn, ulushi – 1,6%) yuqori darajadagi o'sish sur'ati asos bo'ldi.

Shuningdek, sohada zamonaviy ilm va innovatsiyalarga asoslangan resurstejamkor texnologiya va agrotexnik tadbirlarni joriy etish, gumusli bio o'g'itlarni qo'llash hisobiga tuproq sifati yaxshilanib, hosildorlik paxtada 10 foiz, bug'doyda 20 foiz, sabzavot-poliz ekinlarida 25-30 foizgacha oshdi.

Joriy yilda ham klasterlar va fermerlar tomonidan 100 ming gektar yerlar foydalanishiga kiritilib, oziq-ovqat ekinlari ekildi, mevali bog' va tokzorlar barpo etildi.



Iqlim o'zgarishi, global isish oqibatida mamlakatimizda suv tanqisligini oldini olish uchun 500 ming gektarda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilinib, 3 mlrd kub metr suv iqtisod qilindi va qariyb 1 mln gektardan yerlarning suv ta'minoti yaxshilandi.



Asosiy maydonlarga ekilgan qishloq xo'jaligi ekinlari, bog'lar, uzumzorlar maydoni

Dehqonchilikda foydalanilgan jami maydon	Jami ekin maydoni	Shundan, asosiy mahsulot turlari bo'yicha							Mevali bog'lar	Tokzorlar
		Donli ekinlar	Texnik ekinlar	Sabzavot	Kartoshka	Poliz	Ozuqa ekinlari	Sabzavot va poliz ekinlari urug'zorlari		
3 816 839	3 316 511	1 555 069	1 083 283	251 034	117 876	72 043	236 140	1 066	357 948	142 380


Manba: Statistika agentligi

2023-yilda dehqonchilikda jami 3816,8 ming gektar yer maydonlaridan foydalanilgan. Ushbu maydonlarning 3316,5 ming gektari (87%) ga asosiy turdagi ekinlar joylashtirilgan bo'lsa, 357,9 ming gektari (9%) mevali bog'lar va 142,4 ming gektari (4%) tokzorlarni tashkil etgan.

Bundan tashqari g'alladan va ertaki ekinlardan bo'shagan maydonlarda takroriy ekinlarni ekish va parvarishlash bo'yicha ham ishlar tashkil etildi. Fermer xo'jaligi va qishloq xo'jaligi tashkilotlari tomonidan 905,7 ming gektar maydonlarga, jumladan, 286,8 ming gektar dukkakli ekinlari, 223,7 ming gektar ozuqa ekinlari, 99,8 ming gektar sabzavot, 109,2 ming gektar sholi, 64,1 ming gektar tariq va supurgi, 34,7 ming gektar moyli ekinlar, 40,8 ming gektar poliz, 46,7 ming gektar kartoshka va 16,4 ming gektar makkajo'xori donli ekinlar ekilib, hosili yig'ishtirib olinishi ta'minlandi.

Takroriy ekilgan maydonlardan 2,2 mln tonna sabzavot, 900 ming tonna poliz, 928 ming tonna kartoshka, 492 ming tonna dukkakli don, 63 ming tonna moyli ekinlar, 510 ming tonna sholi, 6,7 mln tonna ozuqa ekinlari, 165 ming tonna tariq va 17 ming tonna supurgi mahsulotlari yig'ib olinishiga erishildi.

Takroriy ekinlar maydoni ulushi



Jami foydalanilgan yer maydonlarining 2553 ming gektari fermer xo'jaliklariga, 640,9 ming gektari dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 622,9 ming gektari qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga birlashtirilgan.

Ularining dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi mos ravishda fermer xo'jaliklarida 53,2 foizni, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 37,9 foizni va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 8,9 foizni tashkil etgan.


Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 16,8 foizdagi ulushli yer maydoni orqali dehqonchilik mahsulotlarining 37,9 foizini ishlab chiqarayotgan dehqon va tomorqa xo'jaliklarining yerdan foydalanish samaradorligi yuqoriligi boisdan, hukumat rahbari tomonidan dehqon xo'jaliklarini tashkil etish uchun fuqarolarga yer maydonlari ajratishning shaffof mexanizmi yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston bir yilda bir necha bor hosil olishga imkon beruvchi issiq iqlim, uzoq vegetatsiya davri mavjudligi kabi afzalliklarga ega bo'lishi bilan bir qatorda 2023-yilda ekinlarni suv bilan ta'minlash, ob-havoning noqulay kelishi kabi muammolar yetishtiriladigan hosilga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi.

Xususan, suvga bo'lgan talabning qondirilishidagi muammolar tufayli ayrim hududlarda takroriy ekinlar yetishtirish imkoniyatini pasaytirdi. Jumladan, lalmikor dehqonchilik qilinadigan hududlarda ham yog'ingarchilik miqdorining kamligi o'z ta'sirini o'tkazdi.


O'tgan yili yanvar oyida anomal sovuq va nam havo oqimini mamlakatimiz hududiga kirib kelishi hamda havo haroratining keskin pasayishi oqibatida mevali bog'larning asosan uzum, danak mevalilar jumladan, gilos, shaftoli va bodom daraxtlarining ertapishar navlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Sovuq ta'sir qilgan mevali daraxtlarni saqlab qolish, ularga muhim agrotexnik tadbirlarni o'tkazish bo'yicha tegishli ilmiy-tadqiqot institutlari olimlari va

DEHQONCHILIKDA FOYDALANILGAN YER MAYDONLARINING XO'JALIK TOIFALARIGA TAQSIMLANISHI




mutaxassislar bilan birgalikda tavsiyalar ishlab chiqilib, malakali olimlardan ishchi guruh tuzilib, joylarda bog'dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklariga ko'rgazmali seminarlar hamda hosilga sovuqni ta'sirini kamaytirish bo'yicha tadbirlar o'tkazildi.

Jami ekin yer maydonlari



Manba: Statistika agentligi

Aholijonboshiga to'g'ri keladigan asosiy dehqonchilik mahsulotlari, kg.






Mamlakatimizda aholi sonining o'sib borishi, asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabning ham ortishiga, ularning ehtiyojlarini esa belgilangan me'yorlar bo'yicha qondirilishini talab etadi. Xususan, 2023-yilda 962 ming tug'ilish qayd etilib, 2024-yilning 1-yanvar holatiga O'zbekiston aholisi 36 799,8 ming kishini tashkil etdi. Dehqonchilik mahsulotlariga bo'lgan talabning qondirilishi o'rtacha holatda bo'lib, aholi jon boshiga to'g'ri kelgan mahsulotlarning hajmi ortib bormoqda.

Masalan, joriy yilda 2022-yilga nisbatan aholi jon boshiga donli ekinlar 4,3 foizga, sabzavotlar 2,4 foizga, kartoshka 2,7 foizga, poliz mahsulotlari 4,4 foizga, mevalar 3,5 foizga ortgan.




Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida 2024- yil 1-yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrga o'rtacha 82 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 1,6 kishiga ortgan (2022-yilda 1 kv.km.ga 78,6 kishi). Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligini eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahrida 6787,5 kishi, Andijon viloyatida 789,4 kishi, Farg'ona viloyatida 600,8 kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Navoiy viloyatida 9,7 kishi, Qoraqalpog'iston Respublikasida 12 kishini tashkil etgan¹.



Qishloq xo'jaligi mahsulotlari respublikamizda uchta toifadagi xo'jaliklar tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Ularning sonida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilmog'da. Jumladan, Fermer xo'jaliklarining sonida deyarli o'zgarish sezilmagan.

Fermer xo'jaliklarining asosiy iqtisodiy faoliyati turi bo'yicha

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-sentabrdagi "Dehqon xo'jaliklari tashkil etishni qo'llab-quvvatlash orqali aholi daromadlarini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar



to'g'risida"gi PQ-373-son qarorining 5.8-bandi ijrosini ta'minlash yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda fermer xo'jaliklari va klasterlar foydalanishidagi paxta va g'alladan qisqartirilgan hamda aholi punktlariga yaqin va suv ta'minoti yaxshi yerlardan 2023-yilda respublika bo'yicha jami 96 453 gektar (103%) yer maydonlari tuman hokimliklari zaxirasiga qaytarilib, davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. respublika bo'yicha tuman hokimliklari zaxiralari qaytarilgan 96,7 ming gektar (250,7 mingta lot) yer maydonlari alohida lotlarga bo'linib, yer tuzish loyihalari ishlab chiqildi.

Ochiq elektron tanlovlarda 91,5 ming gektar yer maydonlarining (241,8 ming lot) g'oliblari aniqlandi, shundan 30,3 ming gektar yer maydonlari 73,3 ming nafar "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"da ro'yxatda turgan ehtiyojmand va xorijdan qaytgan mehnat migrantlarini tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligi vazirligi soha mutaxassislari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda dehqon xo'jaliklari a'zolariga yer to'g'risidagi qonunchilik va ijara shartnomasi talablari bajarilishi hamda ijaraga berilgan yer uchastkasidan oqilona foydalanish, hududlar ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan va

eksportbop qishloq xo'jaligi ekinlari ekilishini ya'ni sabzavot, poliz, dukkakli, moyli va kartoshka ekinlarini intensiv usulda ekish yuzasidan tushuntirish ishlari amalga oshirib kelinmoqda.

Paxta va g'alla maydonlaridan qisqartirilib, dehqon xo'jaligi tashkil etish uchun tarqatilayotgan yer maydonlari hisobiga, dehqon xo'jaliklarining soni keskin ortmoqda. 2022-2023-yillarda 753 mingdan ortiq fuqarolarga dehqon xo'jaligi tashkil etish uchun yer maydonlari ajratildi.

Qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi boshqa tashkilotlar 2022-yilga nisbatan 11,5 foizga ortgan. Bunga asosan, issiqxonalar tashkil etish, klasterlar faoliyatini jadallashtirish turki bo'lgan.

2022-2023-yillarda auksion orqali 5214 ta tashkilotga 266,2 ming gektar yer maydonlari ajratilgan. Ularning:

- 105 ming gektari paxta-g'allachilik yo'nalishidagi 999 ta subyektlarga;
- 77,3 ming gektari chorvachilik yo'nalishidagi 816 ta;
- 31 ming gektari g'allachilikdagi 530 ta;
- 15,8 ming gektari bog'dorchilikdagi 1098 ta;
- 12,8 ming gektari uzumchilikdagi 462 ta;
- 7,1 ming gektari meva-sabzavotchilikdagi 632 ta;
- 3,3 ming gektari g'allachilik-sabzavotchilikdagi 72 ta;
- 3,3 ming gektari dorivorchilikdagi 86 ta;
- 2,7 ming gektari kartoshkachilikdagi 12 ta;
- 2 ming gektari polizchilikdagi 67 ta;
- 2 ming gektari ko'chatchilikdagi 107 ta;
- 1,2 ming gektari baliqchilikdagi 129 ta;
- 0,7 ming gektari sabzavotchilikdagi 84 ta;
- 0,7 ming gektari dukkakli-moyli ekinlar 39 ta;
- 0,4 ming gektari sabzavot-polizchilikdagi 27 ta;
- 0,2 ming gektari pillachilikdagi 31 ta;
- 0,1 ming gektari urug'chilikdagi 9 ta;
- 0,5 ming gektari boshqa ekinlar yetishtiruvchi 14 ta subyektlarga ajratildi.

Paxta



Paxtachilikda ilmga asoslangan urug'chilik, nav tanlash, yerga ishlov berish, o'g'itlash, sug'orish ishlarini yo'lga qo'yish orqali hosildorlikni oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-yanvardagi "Paxta xom ashyosi yetishtiruvchilar faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-22-son qarori qabul qilindi.

Respublikada joriy yilda 136 ta tumanda 142 ta paxta-to'qimachilik klasterlari va ularga birlashtirilgan 31 mingdan ortiq fermer xo'jaliklari tomonidan 1 mln 12 ming gektar maydonda g'o'za parvarish qilindi. Hududlarning tuproq-iqlim sharoitiga mos va turli stress omillarga chidamli serhosil va tola sifati bo'lgan jami 45 ta g'o'za navlari, jumladan ertapishar va o'trapishar 29 ta navlar 78 foiz maydonga ekildi va 8 ta yangi navlar maydoni 157 ming gektarga (16 %) kengaytirildi. Paxtachilik kengashi tomonidan nav joylashtirishda olimlarning tavsiyalari asosida 13 ta tumanning tuproq-iqlim sharoiti va o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, 22 ta nav joylashtirildi (8 ta nav chiqarib tashlandi), 32 ta yangi va istiqbolli navlar sinovdan o'tkazildi.

Tindirilgan urug' ekish va nav urug'ini yangilash (almashtirish) 37,6 ming ga maydonga tindirilgan urug' ekildi, 44,8 ming ga maydonga ekiladigan urug'lar yangilandi (33 ta nav 8-10 yil davomida ekib kelinayotgan edi).



2023-yil chigit ekish ishlari o'tgan yilga nisbatan 18-20 kun erta boshlanib, 10-15 kun davomida to'liq yakunlandi. 500 ming gektarga 2 484 ta yuqori unumli pnevmatik seyalkalardan samarali foydalanilib, 15 ming tonna urug'lik chigit va 5 ming tonna dizel yoqilg'isi iqtisod qilindi. Hosildorlikni oshirish maqsadida chigit qo'shqator sxemada 113 ming gektarga (o'tgan yilga nisbatan 14 ming gektar ko'p) va mashina terimini tashkil etish uchun 76 sm sxemada 228 ming gektarga (111 ming gektar ko'p) ekildi.

G'o'zani mineral o'g'itlar bilan 3-marta oziqlantirish ishlari o'tkazilib, bunda har gektar maydonga sof holda 100 kgdan fosforli, 41 kgdan kaliyli va 281 kgdan azotli o'g'itlar kiritildi. Har bir navga xos NPK nisbatini qo'llash, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, tuproq tahlillari (NPK 1:0,7:0,5) va PH ko'rsatkichlari asosida takomillashgan innovatsion agrotexnologiyalar qo'llanildi.

O'tgan yilgi tajribadan kelib chiqib, Jizzax, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Xorazm va vodiy viloyatlarida 300 ming gektardan ortiq maydonda g'o'za asalari bilan changlatilganligi hosildorlikni 5-7 sentnerga oshirish imkonini berdi. Bunday maydonlar har yili 100-120 ming gektarga ko'paytirib borilmoqda. G'o'zani jadal o'sib, rivojlanishi va turli stress omillarga bardoshlilikni oshirish maqsadida tarkibida makro va mikro elementlar bo'lgan biostimulyatorlar bilan o'rtacha 3-4-marta suspenziya usulida bargdan oziqlantirildi. Shuningdek, mavsum davomida g'o'za qator oralarida 2-3-marta chuqur yumshatish, 9-10-marta kultivatsiya, 3-4-marta sharbat usulida sug'orish tadbirlari o'tkazildi.



Joriy yilda 79 ming gektarda tomchilatib sug'orishni o'rnatish va 111 ming gektarda lazerli tekislash tadbirlari amalga oshirilib, 250 ming gektarda suv tejovchi texnologiyalar asosida va 300 ming gektar lazerli tekislangan maydonda g'o'za parvarish qilindi. Bundan tashqari, mavsum davomida soha olimlari tomonidan oyma-oy amalga oshiriladigan agrotexnik tadbirlar bo'yicha qo'llanma hamda tavsiyalar tayyorlanib, barcha paxta-to'qimachilik klasterlari va fermer xo'jaliklariga yetkazib borildi.

Joriy yilda 100 dan ortiq yuqori unumli paxta terish mashinalari xarid qilinib, jami 1131 ta texnika bilan 800 ming tonna (22 %) paxta hosili terib olindi.



Donli ekinlar

Donli ekinlar yetishtirish jami 8,4 million tonnani tashkil etib, 5,5 foizga o'sdi. Jumladan, boshqoli don 6634 ming tonna, 3,6 foizga o'sish qayd etildi.



Sholichilik sohasini yanada rivojlantirish maqsadida dunyodagi yetakchi sholi yetishtiruvchi "Xalqaro sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti" (Filippin), "Xitoy milliy sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti", "Mekong Delta" sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti (Vyetnam), "Federal sholichilik ilmiy markazi" (Rossiya) hamda KOPIA va AFACI (Koreya) tashkilotlari bilan hamkorlik qilinmoqda.


Jumladan, Filippin Xalqaro sholichilik ilmiy-tadqiqot institutidan joriy yilda 520 dona sholi nav-namunalari, shundan, 100 ta sho'rga va 199 ta qurg'oqchilikka chidamli hamda 193 ta ertapishar liniyalari va 26 ta xalqaro standartlarga mos navlar urug'liklari olib kelindi.

Boshlang'ich tajriba sinovlarini o'tkazish maqsadida xorijdan olib kelingan suv kam talab qiluvchi sholi navlari Toshkent va Namangan viloyatlarida, sho'rga chidamli navlar Xorazm viloyatida ekildi.


Xitoydan olib kelingan 27 ta, Vyetnamdan 14 ta, Janubiy Koreyadan 5 ta, Rossiyadan 2 ta, mahalliy 19 ta sholi nav va namunalarida ekologik tajriba sinovlari o'tkazildi. Sinov natijalariga ko'ra, navlarning o'ziga xos xususiyati va sholini urug'idan egatlab ekish usuli hisobiga bir gektar maydonda 9-11 ming metr kub suv iqtisod qilindi. Xorazm viloyati tuproq-iqlim sharoitlarida sholining yuqori hosilli, xorijiy navlarini sinash va mahalliy sharoitda urug'ini ko'paytirish bo'yicha tajriba o'tkazilgan 67 ta nav namunasidan yaxshi ko'rsatgich ko'rsatgan, qurg'oqchilikka chidamli va kam suv talab qiladigan 2 ta nav (Water va KS-2022.2) tanlab olindi. Kelgusi yilda ushbu navlar introduksiya qilinadi. Shuningdek, Koreyaning KOPIA markazi bilan hamkorlikda Andijon viloyatida asosiy va takroriy maydonlarga sholini ko'chat usulida ekib, bir yilda ikki marta hosil olish bo'yicha tajribalar olib borildi. Xususan, issiqxonada sholining o'rta pishar "Iskandar" navi ko'chatlari tayyorlanib, 30-35 kunlik ko'chatlar 10-aprelda asosiy ekin sifatida ekildi hamda iyul oyida yig'ishtirib olindi (o'rtacha hosildorlik 65 s/ga). Peshma-pesh 25 kunlik ko'chatlari ekilgan ertapishar "Devzira" navining yetishtirilgan hosilini oktyabr oyi oxirida yig'ib olish rejalashtirilmoqda. Sholi yetishtirish bo'yicha yangi agroteknologiyani hududlarda ommalashtirish va tajriba almashish maqsadida joriy yilning iyul oyida respublika ko'rgazmali seminari o'tkazildi. Umuman olganda, ilmiy muassasalarda tayyorlangan yuqori avlodli urug'liklarni ko'paytirish maqsadida respublika bo'yicha 161 ta urug'chilik xo'jaliklari faoliyati yo'lga qo'yildi. Urug'lik sholi maydonlarida amalga oshirilayotgan agroteknik tadbirlarni o'rganish hamda ilmiy asosda tavsiyalarni berib borish maqsadida soha olimlari va tajribali mutaxassislardan iborat ishchi guruhlari tashkil etilib, hududlarda doimiy ravishda monitoring olib borildi.



Don, boshqoli donvabug'doyishlab
chiqarishningo'sishi, 2023/2022-y.




Bug'doy yetishtirish, tonna





Manba: Statistika agentligi

Donli ekinlar tarkibi,mingtonna



Manba: Statistika agentligi





Donli ekinlar ochiq, katta hajmdagi maydonlarda hosildorligi yuqori bo'lishi nuqtayi nazaridan, katta yer egalari – fermer xo'jaliklarining hosildorlik ko'rsatkichlari yildan yilga ortib bormoqda. 2022-yilga nisbatan fermer xo'jaliklari donli ekinlarining hosildorligi o'rtacha 12 foizga, qishloq xo'jaligi tashkilotlarda 22 foizga o'sgan.

2023 yilda fermer va g'allachilik klasterlarida jami 1 142 ming gektar (sh.n. 1 026 ming ga suvli, 115 ming ga lalmi) maydonlarda boshqoli don ekinlari yetishtirildi. Boshqoli don yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun Qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan 5 trln.so'm imtiyozli kredit mablag'lari ajratildi. Hosildorlikni oshirish maqsadida biologik eskirgan navlar o'rniga yangi yuqori hosilli, ob-havoning noqulay




sharoitlariga chidamli 12 ta (shundan, 8 ta mahalliy) kuzgi bug'doy navlarining maydoni 585 ming gektarga kengaytirildi.

Xususan, "Antonina", "Bezostaya-100", "Vexa", "Alekseich", "Asr", "O'zbekiston-25", "Davri", "Jasmina", "Xisorak", "Bunyodkor", "Shams", "Navbahor" kabi serhosil navlar joylashtirildi.

Ekish oldidan 103 ming gektar lazerli tekislandi va 184 ming gektarga zamonaviy seyalkalar yordamida ekildi. G'alla yetishtiruvchi xo'jaliklariga ekish oldidan (fizik holda) 221 ming tonna fosforli (o'rtacha 186 kg/ga), 41,3 ming tonna kaliyli (o'rtacha 35 kg/ga) mineral o'g'itlar yetkazib berildi. Ekish mavsumi o'tgan yillarga nisbatan 10-12 kun erta yakunlanib, oktyabrning uchinchi 10 kunligi va noyabr oyidagi yog'ingarchiliklar hisobiga asosiy g'alla maydonlarini tuproqning tabiiy namiga undirib olish imkonini berdi. Erta muddatlarda ekilgan g'alla maydonlarida kuz-qish oylarida azot yetishmovchiligini oldini olish uchun 900 ming gektardan (80%) ortiq maydonda azotli mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish ishlari amalga oshirildi.

Yanvar oyidagi anomal sovuq oqimi kirib kelishidan 1-2 kun oldin yoqqan qor g'alla nihollarini sovuqdan asrab, ildiz tizimini yaxshi rivojlanishiga va to'liq tinim davrini o'tash imkonini berdi. Shuningdek, mart-may oylarida azotli mineral o'g'itlar bilan 3-marta (750-800 kg/ga fizik holda) hamda makro-mikro o'g'itlarga boyitilgan biostimulyatorlar bilan suspenziya usulida 4-5-marta bargidan oziqlantirildi. G'alla maydonlarida 1,2 mln gektar begona o'tlarga, 1,1 mln gektar kasalliklarga va 761 ming gektar hasvaga qarshi kimyoviy va biologik ishlovlar o'tkazildi. Aprel va may oylarida ob-havoning qulay kelganligi g'allaning boshqolash fazasidagi don quyilishida, ya'ni sut va mum pishishida ijobiy ta'siri ko'rsatib, boshqadagi donning to'liq bo'lishiga erishildi.



Manba: Statistika agentligi

G'alla hosilini uyushqoqlik bilan qisqa muddatlarda o'rib- yig'ib olish uchun 2 557 ta g'alla o'rish otryadlari tashkil etilib, 3 205 ta yuqori unumli kombaynlar, 14 725 ta yuk avtomobillari, 1 000 ta traktor tirkamasi, 1 261 ta ko'chma ustaxonalar va 1 134 ta yonilg'i qo'yish shaxobchalari birlashtirildi. G'allaning rivojlanish fazalari va navlarining pishish holatidan kelib chiqib, Surxondaryo viloyatida 22-may, Qashqadaryoda 24-may, Sirdaryo, Toshkent va Buxoroda 29-may, Jizzaxda 31-may hamda Farg'ona va Navoiyda 2-iyun, Andijon, Samarqand va Xorazmda 5-iyun hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida 8-iyundan g'alla o'rim ishlari kirishildi.

G'alla o'rim-yig'imini o'z vaqtida to'g'ri tashkil qilgan g'allakorlar Surxondaryoda 75,3 s/ga, Farg'onada 74,9 s/ga, Sirdaryoda 74,1 s/ga, Namanganda 73,8 s/ga, Xorazm va Toshkentda 73,0 s/ga hosil olgan.

Jumladan, Kitob, Shahrisabz, Yakkabog', Uchqo'rg'on, Pop, To'raqo'rg'on Mirzacho'l, Paxtakor, Qamashi, Norin, Oltinsoy, Sariosiyo, Denov, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Muzrobd, Termiz, Mirzaobod, Oqoltin, Sayxunobod, Sirdaryo, Buvayda, Dang'ara, Quva, Oltinariq va Furqat tumanlarida o'rtacha 76-80 s/ga;

Buloqboshi, Oltinko'l, Jalaquduq, Qo'rg'ontepa, Romitan, Vobkent, Do'stlik, Chiroqchi, Mingbuloq, Namangan, Ishtixon, Kattaqo'rg'on, Uzun, Bandixon, Sardoba, Buvayda, Yuqorichirchiq, O'rtachirchiq, Oqqo'rg'on, Zangiota, Beshariq, Qo'shtepa, Rishton, Toshloq, Uchko'prik, Bog'ot, Gurlan va Xonqa tumanlarida 73-75 s/ga don hosili yetishtirildi.

Ayniqsa, Mirzacho'l tumanidagi "Og'abek Sobirovich", Uchqo'rg'ondagi "Farxod zamin tolasi", Toshpo'lot xoji ota", Kattaqo'rg'ondagi "Jamolov Lutfullo dalalari", Angordagi "Ikki do'st Surxon Angor", Jarqo'rg'ondagi "Otaqum Umidli

Baraka", "Mirkamol Dostonovich", "Toshmurod bobo Abdullox", Qumqo'rg'ondagi "Xurshid Jo'rayev", Boyovutdagi "Bekzod Obloqulov", "Mexnatkashga omad yor", "Sayoxat zavqi", Bekobodagi "Boqiyeva Nazira agro", Yuqorichirchiqdagi "Ibroxim agro fayz", Buvaydadagi "Alqor agrotex", "Buyuk Zafar", Quvadagi "Komiljon Dilafuruz Ismigul" fermer xo'jaliklarida hosilidorlik 95-100 sentnerni tashkil etdi.

Kartoshka, sabzavotlar va poliz ekinlari

2023-yilda qiymati 75 trln so'mlik jami 17,7 million tonna kartoshka, sabzavot va poliz yetishtirilib, bu qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida 18,5 (+0,3%) ulushini tashkil etdi.

Jumladan, sabzavotlar yetishtirish 11,6 million tonnani tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 3,5 foizga o'sgan. Ushbu sabzavot hajmlarining 6,9 million tonnasi yoki 59,4 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklarida, 4,3 million tonnasi yoki 37,1 foizi fermer xo'jaliklarida va 400,1 ming tonnasi yoki 3,4 foizi qishloq xo'jaligi tashkilotlarida yetishtirilgan.

2023-yilda sabzavotga bo'lgan talabni qoplash maqsadida fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi tashkilotlari tomonidan 156,4 ming gektar maydonga sabzavotlar, 73,3 ming gektarga poliz va 120 ming gektarga kartoshka ekildi. Sabzavotlarning 112,2 ming gektari bahorda asosiy maydonlarga, 13,5 ming gektari 2022-yilning avgust-sentyabr oylarida, 26,1 ming gektari to'qsonbosti usulida va 4,6 ming gektari issiqxonalarda ekildi.

Bundan tashqari 26,9 ming gektar lalmi maydonlarga poliz, shundan 24,6 ming gektar tarvuz va 2,3 ming gektar qovun ekildi.



ming gektarida boshqa ekinlar ekilishi belgilangan.


Amalda 18,2 ming gektar dala chetlaridan 284 ming tonna oshqovoq, qovun tarvuz, 2,5 ming gektardan 42,2 ming tonna sabzavot yig'ishtirib olindi. Yig'ib olingan jami poliz yalpi ishlab chiqarish hajmiga 11,1 foiz, sabzavot hajmiga 0,4 foiz ulush qo'shilishiga zamin yaratdi.

Shuningdek, o'tgan yilda "Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining 699-sonli qarori qabul qilindi.

2023-yil 12-apreldagi "Qishloq xo'jaligi korxonalari dala chetlaridagi yer maydonlarida mahsulot yetishtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-121 qarorida dala chetini o'zlashtirish va mahsulot yetishtirish uchun zarur bo'lgan urug', ko'chatlar, mineral o'g'itlar, kimyoviy preparatlar, moddiy-texnik resurslar bilan ta'minlash vazifasi qo'yildi. Xususan, 71 ming ta fermer xo'jaliklarining 58,9 ming gektar dala cheti maydonlarida 18,1 ming gektarida oshqovoq, qovun tarvuz, 2,7 ming gektarida sabzavot va 3,1



Yetishtirilgan kartoshkaning hajmi o'tgan davrga nisbatan 3,8 foizga o'sishiga qaramasdan, ichki bozordagi talab ham keskin oshib bordi va natijada yil davomida 516,7 ming tonna yoki 49,7 million dollarlik iste'mol uchun, 5,9 ming tn yoki 3,1 million dollarlik urug'lik kartoshka import qilingan.




Kartoshka yetishtirishda eng yuqori ulushga ega bo'lgan tumanlar

№	Tumanlar nomi	2023-yilda ishlab chiqarilgan kartoshka, tonna	Jami kartoshka ishlab chiqarishdagi ulushi, %da
1	Bulung'ur	149 495,9	4,2
2	Urgut	128 002,0	3,6
3	Yangiyo'rg'on	113 795,6	3,2
4	Toyloq	93 327,1	2,6
5	Payariq	88 073,6	2,5
6	Denov	79 411,9	2,2
7	Bo'stonliq	63 318,6	1,8
8	Sho'rchi	54 616,0	1,5
9	Paxtaobod	54 057,4	1,5
10	Qumqo'rg'on	51 051,0	1,4
11	Jalaquduq	45 180,6	1,3


Respublikamizda o'tgan yilda yetishtirilgan kartoshkaning 26 foizi 11 ta tumanlar hissasiga to'g'ri keldi. Ularning iqlim sharoiti, tuprog'ining kartoshka yetishtirishga mosligi iste'molga kartoshkani katta hajmda yetkazib berilishiga omil bo'lmoqda. Jumladan, Samarqand viloyatining Bulung'ur tumani respublikada yetishtirilgan kartoshkaning 4,2 foizini qayd etib, eng ko'p yetishtiriladigan tuman bo'lib qolmoqda.

2023-yilda respublikamizda kartoshkachilikka juda katta e'tibor qaratilib, 20 mingdan ortiq fermer xo'jaliklari va 400 dan ortiq qishloq xo'jaligi tashkilotlari tomonidan yerga urug'lar ekildi. Xorijdan kartoshkaning sifatli urug'lari olib kelinib, uning hosildorligini oshirish bo'yicha kerakli agrotexnik tadbirlar amalga oshirildi. Olib borilgan ishlar natijasida, barcha toifadagi xo'jaliklarning o'rtacha hosildorligi 20 tonnani tashkil etdi. "O'zbekiston -Vengriya kartoshkachilik ilmiy markazi" bilan hamkorlikda tajribalar asosida tanlangan Vengriya seleksiyasiga mansub 5

ta kartoshka navlari (Botond, Balatoni rozsa, Balatoni Sarga, Démon, White Lady) Toshkent viloyati uchun istiqbolli deb topildi.




Manba: Statistika agentligi




Manba: Statistika agentligi


Poliz mahsulotlari yetishtirish hajmi 2,6 million tonnani tashkil etdi va 5,5 foizga o'sish qayd etildi. Polizning 1,4 million tonnasini fermer xo'jaliklari, 1 million tonnasini dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,1 million tonnasini qishloq xo'jaligi tashkilotlari yetishtirgan. Xorijiy davlatlarga 164,2 ming tonna, 74,7 million dollarlik poliz eksport qilindi.




Manba: Statistika agentligi




Manba: Statistika agentligi

Meva va rezavorlar hamda uzum


Manba: Statistika agentligi



Manba: Statistika agentligi



Manba: Statistika agentligi



Manba: Statistika agentligi


Meva va rezavorlar yetishtirish 4,1 foizga o'sib, qariyb 3,1 million tonnani tashkil etdi. Mevaning 1,4 million tonnasini fermer xo'jaliklari, 1,6 million tonnasini dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari, 0,1 million tonnasini qishloq xo'jaligi tashkilotlari tomonidan yetishtirilgan.

"2023-2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida" prezident qarori qabul qilinib, uzum yetishtirish bo'yicha xalqimizning asrlar davomida shakllangan milliy dehqonchilik madaniyati, qadriyatlaridan kelib chiqib, uzumchilikni milliy madaniyat sifatida rivojlantirish chora-tadbirlarini belgilandi.

Ilmiy asoslangan holda uzum yetishtirish, uning yangi hosildor, danaksiz navlarini yaratish maqsadida uzumchilik ilmiy maktabini rivojlantirish hamda ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviy integratsiyasini yo'lga qo'yish ishlari boshlab yuborildi.



Shuningdek, qarorda 2023-2024-yillarda To'rtko'l, Ellikqal'a, Asaka, Buloqboshi, Jalaquduq, Xo'jaobod, Romitan, Shofirkon, Vobkent, Baxmal, Zomin, G'allaorol, Forish, Yangiobod, Shahrisabz, Kitob, Dehqonobod, G'uzor, Yakkabog', Xatirchi, Nurota, Yangiqo'rg'on, Chust, Chortoq, Kosonsoy, Bulung'ur, Urgut, Jomboy, Qo'shrabot, Oltinsoy, Boysun, Sariosiyo, Uzun, Sardoba, Xovos, Sirdaryo, Bekobod, Parkent, Yangiyo'l, Zangiota, Ohangaron, Toshkent, Qibray, O'rta Chirchiq, Oltiriq, Beshariq, Farg'ona, Yangibozor, Bog'ot, Hazorasp tumanlari va Quvasoy shahri hokimliklari "Oltiriq tajribasi" asosida har biri 2 — 2,5 ming gektar yer maydonlarida uzum plantatsiyalari tashkil etish belgilab olindi.



Eksportqilingan mevalar, ming tonna



Uzum yetishtirish ham sezilarli oshib, 1,7 million tonnani tashkil etib, 2022-yilga nisbatan 98,7 foizga o'sish qayd etilmadi. Bunga o'tgan yili yanvar oyida respublikamiz hududiga kirib kelgan anomal sovuq ta'sirida tokzorlarning zararlanishi yig'ib olingan yalpi hosilga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ayniqsa, Surxondaryo viloyatida 74,5 ming tonnani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 69,7 foiz, Toshkentda 87,8 ming tn 81,6 foiz, Navoiyda 85,6 ming tn 94 foiz, Farg'onada 179,1 ming tn 96,2 foiz darajada o'sish ta'minlanmadi.





Meva yetishtirishda eng yuqori ulushga ega bo'lgan tumanlar

№	Tumanlar nomi	2023-yilda ishlab chiqarilgan meva, tonna	Jami meva ishlab chiqarishdagi ulushi, %da
1	Yangiyo'rg'on	141 621,4	4,5
2	Asaka	90 046,9	2,9
3	Jalaquduq	81 803,5	2,6
4	Jondor	71 296,4	2,3
5	Marxamat	70 262,5	2,3
6	Xo'jaobod	65 435,2	2,1
7	Shahrixon	65 298,9	2,1
8	Paxtaobod	62 682,1	2,0
9	Quvasoy sh	60 920,5	2,0
10	Chortoq	57 882,9	1,9
11	Farg'ona	47 671,4	1,5
12	Bulung'ur	46 237,4	1,5
13	Jomboy	44 509,2	1,4

Mevalar yetishtirishda eng ilg'or tumanlar asosan vodiylar hududlari hisoblanadi. Masalan, Namangan viloyatining Yangiyo'rg'on tumanida 2023-yilda eng ko'p meva yetishtirilib, respublika meva yetishtirishidagi ulushi 4,5 foizni tashkil etdi.

2.1.2. Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

Mamlakatimiz aholisini chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini to'liq qondirish, bozorlarda mahsulotlar narxlarini barqarorligini ta'minlash hamda chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha umumiy qiymati 7,4 trln so'mlik 2 145 ta loyihalar amalga oshirilib, ushbu loyihalar doirasida chetdan 135 ming bosh qoramol, 228 ming bosh qo'y va echkilar olib kelindi.

Naschilik ishlarini rivojlantirish maqsadida 2,4 mln bosh sigir va tanalar sun'iy urug'lantirildi hamda nasli yaxshilangan qoramollar ulushi 72 foizga yetkazildi.

Chorva ozuqa bazasini mustahkamlash uchun 430,7 ming gektar ozuqa maydonlarning 70,2 ming gektarga yangi beda (98,6 ming gektar eski beda mavjud), 210,3 ming gektarga silos uchun makkajo'xori, 37,9 ming gektarga oq jo'xori, 13,5 ming gektarga xashaki lavlagi, 90,2 ming gektarga kuzgi oraliq ozuqa ekinlari ekildi. 2023-2024-yil chorva qishlovini betalofat o'tkazish maqsadida jami 26 mln tonna dag'al va shirali ozuqalar jamg'arildi.

Chorvachilik subyektlari soni jami 18 971 taga yetkazildi. Jumladan, 7 919 ta qoramolchilik, 3 407 ta qo'y va echkichilik, 143 ta yilqichilik, 53 ta tuyachilik, 1 163 ta parrandachilik, 5 317 ta baliqchilik, 715 ta asalarichilik va 254 ta quyonchilik subyektlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Naslchilik xo'jaliklari soni 1604 taga, naslli buqa urug'i ishlab chiqaruvchi korxonalar soni 3 taga yetkazildi. Yil boshidan buyon 2,4 mln bosh sigirlar sun'iy urug'lantirilib, nasli yaxshilangan qoramollar bosh soni 72 foizga yetkazildi. 89 ta go'sht-sut yetishtiruvchi hamda qayta ishlovchi korxonalar tomonidan aholiga 6,2 ming bosh chorva mollari kooperatsiya usulida yetkazib berildi.

Chorva qishlovi uchun 26 mln tn (shundan chorva f.x 4,0 mln tn) dag'al xashak jamg'arildi.

Paxta-g'allachilik subyektlarining 141,1 ming ga maydoniga almashlab beda va boshqa chorva ozuqa ekinlari ekildi.

Chorvachilik subyektlarida 252 ta intensiv "Gidroponika" texnologiyasi asosida ozuqa ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish maqsadida joriy yilda 21 ta chorvachilikka ixtisoslashgan yirik xo'jaliklarda biogaz va biogomus ishlab chiqarishni yo'lga qo'yildi.


Chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirish uchun Xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi loyihalar doirasida 240 mln dollar mablag'lar jalb qilindi.

Veterinar osoyishtalikni ta'minlash maqsadida 37,5 mln bosh chorva mollari 11 turdagi, 94 mln bosh parrandalar 4 turdagi kasalliklarga qarshi emlandi, 14,5 mln bosh hayvonlarda diagnostik tahlillar o'tkazildi, 38 mln bosh chorva mollariga profilaktik ishlov berildi. 200 mlrd so'mlik pullik veterinariya xizmatlari ko'rsatildi.




647 nafar veterinariya mutaxassislarining malakasi oshirildi va qayta tayyorlandi, ilmiy muassasalarda ilmiy darajali xodimlar soni 45 foizga oshirildi.

Chorvachilik mahsulotlari qiymati 202 trillion so'mni tashkil etib, umumiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmidagi ulushi 49,9 foizni, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati esa 103,7 foizni (+0,4%) tashkil etdi. Chorvachilik mahsulotlarining 88,4 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 6,3 foizi fermer xo'jaliklariga va 5,3 foizi qishloq xo'jaligi tashkilotlariga to'g'ri kelgan. Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining yuqori ulushga egaligi, chorva mollari bosh sonining asosiy qismi ularga tegishli ekanligi bilan bog'liq.



Chorva mollari va parrandalar bosh soni

Chorva mollarining bosh soni o'sib borishi respublikamizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda statistik kuzatuv natijalariga ko'ra, 14,1 million bosh yirik shoxli qoramol, 24,1 million bosh qo'y va echkilar va 103 million bosh parrandalar mavjud.



Jami yirik shoxli qoramollar 14142,4ming bosh		
Fermer xo'jaliklarida 1 031,8mingbosh	Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 12 845,1mingbosh	Qishloq xo'jaligi tashkilotlarida 265,5mingbosh


Jami sigirlar 5046,3ming bosh		
Fermer xo'jaliklarida 410,1mingbosh	Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 4541,9mingbosh	Qishloq xo'jaligi tashkilotlarida 94,3mingbosh

Jami qo'y va echkilar 24 118,3ming bosh		
Fermer xo'jaliklarida 3 735,2mingbosh	Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 18 700,5mingbosh	Qishloq xo'jaligi tashkilotlarida 1682,6mingbosh

Jami parrandalar 103 046,5ming bosh		
Fermer xo'jaliklarida 18479,1mingbosh	Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 49922,1mingbosh	Qishloq xo'jaligi tashkilotlarida 34 645,3mingbosh




Yirik shoxli qoramollar




Manba: Statistika agentligi

Qo'y va echkilar




Manba: Statistika agentligi

Otlar




Manba: Statistika agentligi

Parrandalar



Manba: Statistika agentligi

Sigirlar



Manba: Statistika agentligi

So'yish uchun yetishtirilgan mollar va parrandalarning jami tirik vazndagi hajmi 2 million 833 ming tonnani tashkil etdi. Shuningdek, 11,9 million tonna sut, 8,4 milliard dona tuxum, 1,3 million dona qorako'l teri, 38,6 ming tonna jun, 25,9 ming tonna pilla va 15,6 ming tonna asal ishlab chiqarishga erishildi.




Aholi jon boshiga go'sht (tirik vaznda) — 76,9 kg, sut — 323,3 kg, tuxum — 228,2 donani tashkil etdi.

Go'sht ishlab chiqarish 3,9 foizga o'sib, umumiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida eng katta ulush 30,3 foizni tashkil etdi.

Go'sht ishlab chiqarishda Samarqand-11,5%, Qashqadaryo -11,5%, Toshkent-10,8%, Buxoro-10,5% va viloyatlarining ulushi eng yuqori bo'ldi.




Ichki bozorda aholining go'shtga bo'lgan talabini va narxlar barqarorligini ta'minlash maqsadida 2023 yilda 49,3 ming tonna mol go'shti, 7,1 ming tonna qo'y go'shti va 47,9 ming tonna tovuq go'shti xorijiy davlatlardan import qilindi.




Sut ishlab chiqarish 2,9 foizga o'sib, umumiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibida 14,9 foiz yuqori ulushni tashkil etdi. Sutning 11,1 million tonnasi (93,2 foizi) dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan.






Parrandalarning bosh soni o'sib borishi bilan tuxum ishlab chiqarish ham sezilarli ortib bormoqda. Xususan, 8,5 milliard dona tuxum olinishi, ichki bozorni tuxumga bo'lgan talabini uzluksiz qondirilishiga zamin yaratdi.




Chorvachilik mahsulotlari o'sish sur'ati, foiz




Manba: Statistika agentligi

Chorvachilik mahsulotlari o'sish sur'ati, 2023/2021y.




Manba: Statistika agentligi

Go'sht (tirik vaznda), mingtonna




Manba: Statistika agentligi

Sog'ib olingan sut, mingtonna




Manba: Statistika agentligi

Olingan tuxum, milliondona




Manba: Statistika agentligi

Pillayetishtirish, tonna




Manba: Statistika agentligi

Junyetishtirish, tonna



Manba: Statistika agentligi

Asalyetishtirish, tonna




Manba: Statistika agentligi

2.1.3. Qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish va ovchilik

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish hajmlarining oshib borishi, bu sohadagi ko'rsatiladigan xizmatlarga bo'lgan talabning ham mutanosib o'sib borishiga olib kelmoqda. Foydalanishga yer maydonlarini kiritish, issiqxonalarni qurish, chorvachilik loyihalarini foydalanishga topshirish, yangi bog'lar barpo etish, dehqonchilik va chorvachilikda qo'shimcha xizmatlarga talabning ortishi va ushbu xizmatlarni ko'rsatilishini ta'minlashni taqozo etadi.

Dehqonchilik va chorvachilik sohasidagi xizmatlar qiymati – hosilni yig'ib olish, yerlarni yaxshilash bo'yicha xizmatlar, tuproqni kimyolashtirish, o'g'itlarni tayyorlash va solish bo'yicha xizmatlar, qishloq xo'jaligi ekinlarini kasalliklardan va zararkunandalardan himoya qilish bo'yicha xizmatlar, agromeliyativ ishlarni o'tkazish bo'yicha xizmatlar, suv xo'jaligi tashkilotlarining irrigatsion va meliorativ tizimlarni ekspluatatsiya qilish bo'yicha xizmatlari, qishloq xo'jaligi hayvonlarini, parrandalarini, asalarilarni, ipak qurtini ko'paytirish bo'yicha qo'shimcha xizmatlar, qishloq xo'jaligiga zootexniya xizmati ko'rsatish va boshqalar qiymatini o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligida xizmatlar ko'rsatish va ovchilikning 2023-yildagi hajmi 6 trillion 946 milliard.so'mni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 4,1 foizga ortdi.



2.2. O'rmon xo'jaligi

O'rmon xo'jaligida ishlab chiqarish hajmi 10 399,5 milliard so'mni, 2022-yilga nisbatan 2,7 foizga o'sdi.

Respublikamizda davlat o'rmon fondi yerlari 11 144,5 ming gektarni, shundan o'rmonzorlar 3 435,7 ming gektarni tashkil etib, ularda 53 ming gektar sug'oriladigan maydonlar mavjud.


Davlat o'rmon fondi yerlarining 81 foizi cho'l hududida, 16 foizi tog' hududida, 2 foizi vodiy hududida va 1 foizi to'qay hududlaridan iborat.

O'rmon xo'jaligi o'rmon resurslarini takror ishlab chiqarish va o'rmon resurslaridan foydalanish, xususan o'rmonchilik, o'rmonzorlarni barpo etish va yog'ochni qayta ishlash tarmoqlari uchun binokorlik dumaloq yog'ochlarini yetishtirish, shuningdek, yovvoyi holda o'suvchi o'rmon mahsulotlarini yig'ish bilan bog'liq bo'lgan soha. O'rmon xo'jaligi faoliyati tabiiy o'rmonlar yoki sun'iy o'rmonzorlar doirasida amalga oshiriladi.

Hozirda o'rmon xo'jaligi mahsulotlariga yog'och tayyorlash, o'rmon xo'jaliklari tomonidan odamlar yoki hayvonlar uchun oziq-ovqat, shuningdek, boshqa foydalanish maqsadlarida dorivor yoki kosmetik o'simliklar sifatida yetishtiriladigan yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar hisobga olinib kelinmoqda. Shuningdek o'rmon daraxtlari ko'chatlarini ko'paytirish va ularni parvarish qilish bilan ham bog'liq.


Respublikamiz hududlarida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida joriy yil bahor mavsumida 129 million 608 ming dona hamda kuzgi mavsumda 76 million 403 ming dona ko'chatlar ekildi.

Buning uchun O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi tomonidan yil davomida 312 gektar yangidan ko'chatxonalar tashkil etildi, o'rmon xo'jaliklari tomonidan mavsum davomida 13,5 million tup ko'chatlar yetkazib berildi.




Manba: Statistika agentligi

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida o'rmon xo'jaligining ulushi, 2023y.



Manba: Statistika agentligi



Manba: Statistika agentligi

3.3. Baliq xo'jaligi

Baliqchilik tarmog'ida 2023-yilda suv bilan bog'liq muammolarga qaramasdan, ovlangan baliq miqdori o'tgan yilgidan 7,4 foizga ko'payib, 198,9 ming tonnani tashkil etdi. Ovlangan baliqning asosiy 49,6 foizi fermer xo'jaliklari tomonidan, 45,2 foizi baliq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan yetishtirilgan. Ovlangan baliqlarning aholi jon boshiga 5,4 kg dan to'g'ri keldi. Intensiv usulda sovuq suv baliqlarini (forel, losos, osyotr) yetishtiruvchi xo'jaliklar soni 20 taga yetkazildi va yillik o'rtacha 5 ming tonna baliq yetishtirilmoqda. Baliqchilik xo'jaliklarini chavoq baliqlari bilan to'liq ta'minlash uchun 286 ta xo'jaliklardagi 7,3 ming gektar reproduktor havzalarida 482 million dona baliq chavoqlari yetishtirish yo'lga qo'yildi.

O'zbekistonning geografik joylashuvi va qurg'oqchil iqlimi tufayli baliqchilik xo'jaliklari baliq yetishtirishning intensiv usulini (60 foizdan ortiq) qo'llashni afzal ko'radi. Bu usul keng suv resurslaridan foydalanishni talab qilmaydi, u arzon bo'lib, investitsiyalarni tez qaytarish imkonini beradi. Mamlakatda do'ng'peshana baliq, zog'orabaliq, oq qayroq baliq, ilon boshi, laqqa baliq kabi mahalliy baliq turlaridan tashqari, tropik turlar — Afrika laqqa baliqi, tilapiya, gulmohi, shuningdek, Sibir bakra baliqi yetishtiriladi.

Baliqchilik bo'yicha Qirg'iziston Respublikasining Jalolobod viloyatidan tajribali mutaxassislarni taklif etib, ushbu yo'nalishning sir-asrorlari har tomonlama o'rganildi. Ishni kooperatsiya usulida tashkil etishga qaror qilindi. Dastlabki ishni 100 ta oiladan iborat baliqchilik kooperatsiyasi tashkil etishdan boshlandi. Bunda sug'orishda foydalaniladigan ichki ariqlarning chetlarida beton hovuzchalar qurilib, bu joylarda




baliq boqish yo'lga qo'yildi. Fuqarolarga oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar ajratildi. Ajratilgan kreditlar uch yillik bo'lib, bundan bir yili imtiyozli davr bilan berildi. Kooperatsiya doirasida kredit olgan fuqaroga baliq boqish uchun alohida hovuzlar ajratib berildi. Ish jarayonlari mutaxassis tomonidan ishga o'rgatilib borildi. Masalan, 6 oy davomida 600 kg yem, zarur maslahat ko'magi bilan ta'minlandi. Baliqchilikning yo'lga qo'yilishi boshqa iqtisodiy samaralar ham berdi. Misol uchun, ariqlar tadbirkorlarga topshirilgandan so'ng ular ta'mirlanib, betonlashtirildi, natijada suvning yerga singishi va bug'lanishi ham kamaydi. Bungungi kunga qadar Sohil mahallasida baliqchilikni rivojlantirish bo'yicha bir nechta loyihalar amalga oshirildi. Xususan, "Uchqo'rg'on fore!" MChJ loyihasi doirasida kooperatsiya usulida baliqchilik xo'jaliklari tashkil etilib, 1 200 ta yangi ish o'rinlari yaratildi, 700 ta hovuz qurildi. Bundan tashqari, "Grand fish farm" MChJ loyihasi doirasida sadoku usulida baliq yetishtirish bo'yicha 500 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.



Manba: Statistika agentligi

Qishloq,
o'rmon va baliq xo'jaligida baliqchilikning
kulushi, 2023 y.




Manba: Statistika agentligi

Manba: Statistika agentligi

Aholi jon boshiga to'g'ri kelganovlanganbaliqmiqdori, kg.




Ovlangan baliq, 2018-2023y.



Manba: Statistika agentligi

Ovlanganbaliq, mingtonna



- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon va tomorqa xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi tashkilotlari

Manba: Statistika agentligi

